

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH
TA‘LIM METODIKASI KAFEDRASI**

**AXMADOVA FERUZANING
5111700 – “Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish”
ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**“BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI ONGIDA UMUMMILLIY
QADRIYATLARGA XOS TUSHUNCHALARNI SINGDIRISH
METODIKASI ” MAVZUSIDA YOZGAN**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: p.f.n. N.Oripova

“Himoyaga tavsiya etildi”
Pedagogika fakulteti dekani
_____ dots. Sh.Nurullayeva
“ _____ ” _____ 2016 yil

Qarshi – 2016

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirishning nazariy asoslari	
1.1. O'quvchilarda umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirish-pedagogik muammo sifatida	
1.2. Umummilliy qadriyatlar muammosining tarixiy ildizlari.....	
1.3. Boshlang'ich ta'lim jarayonida umummilliy qadriyatlardan foydalanishning mavjud ahvoli.....	
II BOB. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirish imkoniyatlari	
2.1. O'quvchilar ongida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirish yo'llari va usullari.....	
2.2. O'quvchilar ongida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirishda o'qituvchi mahoratining o'rni va ahamiyati.....	
2.3. Tajriba-sinov ishlari tahlili.....	
Xulosa	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	
Ilovalar	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Ong va ma'naviyat shunday qudratli kuchki, insonni ulug' ishlar: bunyodkorlik, vatanparvarlik, ezgulikka chorlaydi. U insonni yangi-yangi maqsadlarni oldiga qo'yishga va uni amalga oshirish yo'lida tinmay izlanishga yetaklaydi. Ma'naviyat insonning hayot yo'lini tanlash, g'oyaviy va mafkuraviy, ma'rifiy, diniy va axloqiy qarashlarini po'yobga chiqaradi.

Yoshlarni mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan barkamol inson etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasini asosiy maqsadi, vazifasi bo'lishi lozim, deb ta'kidlaydilar yurtboshimiz.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish va rivojlantirish masalasi davlatimiz va hukumatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, Prezidentimiz Islom Karimovning doimiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Yurtimizdagi barcha islohotlar qatori bu sohadagi tarixiy o'zgarishlar ham davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan amalga oshirilmoqda. Jumladan, ushbu sohada qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi kabi ta'lim sohasining meyoriy hujjatlari fikrimiz dalilidir. Aynan shu qonun hujjatlari asosida ta'lim tizimining zamon talablariga to'liq javob beradigan zamonaviy tizimi shakllandi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu qonun hujjatlarida ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umumbashariy an'ana va qadriyatlarga asoslanish lozimligi alohida ta'kidlangan. Prezidentimiz I.Karimov o'zining "Yuksak Ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida ma'naviyatning inson hayotidagi o'rni, jamiyat yuksalishidagi ahamiyatini teran, chuqur mushohada va hayotiy tajribadan kelib chiqib tahlil qilib berdi. Muallif ma'naviyatga insonni ruhan poklanish va qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, uning vijdonini uyg'otuvchi beqiyos kuch" [] deb ta'rif berar ekan, ma'naviy tarbiya masalasini hayot-mamot masalasi deb biladi.

Darhaqiqat, inson ongi va ma'naviyatini shakllantirish o'ta murakkab va mas'uliyatli jarayondir. Ayniqsa, bugungi shiddatkor globallashuv jarayonlarida

yosh avlod ongini har qanday ma'naviy tahdidlardan himoyalashning mexanim va tizimini ishlab chiqish davr talabidir. Agarki, - deydi Yurtboshimiz I. Karimov – biz bunday xatarlarga qarshi o'z vaqtida qat'iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga tez shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o'z girdobiga tortib ketishi, oqibatda ularning ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini o'ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. []

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, yosh avlod tarbiyasi har qachongidanda dolzarb muammolardan biridir, shu bois ular ongi va ma'naviyatida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirish metodikasini ishlab chiqish davr talabidir. Bunda birinchi navbatda bizningcha quyidagi tarbiya yo'nalishlariga umummilliy qadriyatlarni singdirgan holda tashkil etish maqsadga muvofiq:

1. Ma'naviy-axloqiy tarbiyara.
2. Vatanparvarlik va fuqarolik tarbiyasiga.
3. Estetik va jismoniy tarbiyaga.
4. Ekologik ong va madaniyatga.

Sog'lom turmush tarzi va mehnatsevarlik tarbiyasiga.

Bular o'z navbatida qanday umummmiliy tushunchalar bo'lishi mumkin, degan savol tug'iladi. Bizningcha bular: tinchlik, inson tirikligi va salomatligi, uning qadr-qimmatini, intellektual salohiyati, bag'rikenglik, do'stlik, saxiylik, go'zallik, axloq, vatanparvarlik va boshqalar. Masalan, birgina bag'rikenglikni tahlil qiladigan bo'lsak, u yosh avlodning kamol topishida bag'rikenglik (tolerantlik) madaniyatining o'rnini va ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarning ahamiyati oshib borayotganligi yoshlarda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishga nisbatan e'tiborni yanada oshirishni taqazo etmoqda. Diniy bag'rikenglik – bu turli e'tiqodlarga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor, hamjihat bo'lib yashashini ifodalaydi.

Umuman olganda dunyo tinchligi va barqarorligini saqlash, shuningdek, mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish uchun yosh avlod qalbida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirish masalasi har qachongidan ham dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yosh avlod ongi va ma’naviyatini shakllantirish, ularni ezgu fazilatlar egasi etib tarbiyalash muammosi bizgacha yetib kelgan mavjud ma’naviy merosda, ayniqsa, Farobiy [21; 224], Beruniy [17; 488], Ibn Sino [27; 182], Al Xorazmiy [18; 104], Alisher Navoiy [36; 389] singari ma’naviyatimiz durdonalarida o‘zining ifodasini topgan. Ushbu allomalarimiz qoldirgan boy ma’naviy meros bugungi kunda butun barcha millat vakillari ma’naviyatini shakllantirishda ham benihoya katta ahamiyatga egadir.

Mustaqillikdan keyingi yillarda qadriyatlar, ularning turlari, namoyon bo‘lish shakllari borasida izlanishlar faylasuf olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Bularni E.Yusupov [37; 196], J.Tulenov [37; 196], A.Jalolov [37; 196], Q.Nazarovlarning [37; 196] tadqiqotlarida kuzatish mumkin.

Pedagog olimlardan S.Nishonova[37; 196], O.Musurmonova [37; 196], N.Ortiqov[37; 196], U.Mahkamov [37; 196], kabilar ilmiy tadqiqotlarida yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarga alohida ahamiyat qaratib, ularning o‘rnini yuqori baholagan.

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda umummilliy qadriyatlar asosida yosh avlod ma’naviyatini shakllantirish dolzarb muammolardan biri ekanligi inobatga olib, uning mavzusini **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirish metodikasi ”** tarzida tanladik.

Tadqiqotning maqsadi – o‘quvchilar ongida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirishning pedagogik asoslari, metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti – boshlang'ich sinf o‘quvchilari ongida umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni singdirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti – boshlang'ich ta'lim jarayonida umummilliy qadriyatlardan foydalanishning mazmuni, manbalari, shakllari, vositalari.

Tadqiqotning ilmiy farazi shundan kelib chiqadiki, agar:

- umummilliy qadriyatlar vositasida o'quvchilar ongini shakllantirishning nazariy jihatlarini ishlab chiqilsa;

- boshlang'ich sinf o'quvchilari ongini shakllantirishda umummilliy qadriyatlarning muhim manba ekanligi ilmiy jihatdan asoslansa,

- darsda va darsdan tashqari jarayonda o'quvchilar ongida umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni shakllantirishning yo'llari, usullari ishlab chiqilsa, kutilgan samaradorlikka erishish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi va ilmiy faraziga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

Birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

Ikkinchidan, boshlang'ich ta'lim jarayonida umummilliy qadriyatlardan foydalanishning samarali usul va vositalarini aniqlash;

Uchinchidan, o'quvchilar ongida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirishga doir ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Pedagogika nazariyasi va tarixi fani boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni singdirish haqidagi nazariy qarashlar, yondoshuvlarga ega bo'ldi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida umummilliy qadriyatlardan foydalanishning samarali usul va vositalari ishlab chiqildi. Qaysikim, ushbu metodika va nazariy qarashlardan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, kadrlar malakasini oshirish tinglovchilari foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot metodlari:

1. Nazariy tahlil;
2. Kuzatish;
3. Suhbat
4. Anketa surovnomalari.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, “2004-2009 yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi”, Pedagogika fani konsepsiyasi, Boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasi, Boshlang‘ich ta‘limning davlat ta‘lim standartlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning shaxs kamoloti, yoshlarni vatan va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ta‘lim tizimi, shu jumladan, boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirish haqidagi nazariy qarashlari, yondashuvlari, tarixiy-ma‘naviy meros namunalari, shuningdek, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalar, o‘quv metodik majmualar.

Malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, ikki bob, to‘rt paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, uning asosiy matni 60 betni tashkil etadi.

I BOB. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirishning nazariy asoslari

1.1. O'quvchilarda umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirish-pedagogik muammo sifatida

Mamlakatimiz mustaqillikligining eng ulkan va buyuk yutuqlaridan biri – qadriyatlarga bo'lgan e'tibor: ularni qayta tiklanishi, inson hayotidagi o'rniga yuqori baho berilishi; qolaversa, butun bir qadriyatshunoslik fanining yagitdan yaratilishi bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. O'z-o'zidan shunday savol tug'iladi, nega qadriyatlarni mustaqillik ne'mati deymiz, chunki, qadriyatlar tushunchasi ilk bor mustaqillikning dastlabki yillarida qo'llanila boshlandi. Buning asoschisi bevosita mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov hisoblanadi. Yurtboshimiz milliy qadriyatlarni tiklash, ulardagi ezgu g'oyalar asosida yosh avlodni tarbiyalash, xalqimizning boy tarixi va madaniyatini yanada yuksaltirish lozimligini o'z nutqlari va asarlarida ta'kidlab o'tdilar.

Bizga ma'lumki, qadriyatlar – xalq madaniyati va ma'naviyatining negizini tashkil etadi. Xalq va millat borki, o'z qadriyatlari bilan tirik va mukarramdir. O'zbek xalqi ham o'z qadriyatlari bilan buyukdir. Bu uning Alpomishu-Go'ro'g'lisi, Ibn Sinosi, Amur Temuri, Alisher Navoiysi, Jaloliddinidir. Yoki Samarqandu-Buxorosi, Oqsaroy-yu, Odinasidir.

Bizga ma'lumki, qadriyatlar inson ongi va faoliyatining natijasidir. Ular shunday katta ijtimoiy kuchga egaki, xalq va millatlarni birlashtirib, kishilarning ongiga singib, amaliy faoliyatiga qudratli stimuly beradi.

Yurtimizda qadriyatlar muammosini ilk bor tadqiq etgan olimlardan biri, J.Tulenov [42; 335] qadriyatlarga shunday ta'rif beradi: “Qadriyatlar deyilganda faqat o'tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajaqdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy

va boshqa boyliklar majmui tushuniladi... Qadriyatlar qadr-qimmat degan ma'noni bildiradi”.

Shuningdek, faylasuf olim E. Yusupovning fikricha, qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy boyliklardir.[48; 123]


Pedagog olim O.Musurmonova qadriyatlarning mazmun-mohiyatini quyidagicha izohlaydi: “Qadriyat – insonning ma'naviy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan, amaliy faoliyatida davr sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan, o'z shakl va mazmunida u yoki bu xalqning ma'naviy olamini mujassam etgan, asrlar davomida xalqning ma'naviy madaniyatini shakllantirish manbai sifatida qadrlanib kelingan, ma'naviy-ruhiy xatti-harakatlar, narsa va hodisalar majmuidir” [67; 108].

Qadriyatlar uzining mazmun, mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Qadriyatlarni jamiyat, millat hayotidagi o'rni, ijtimoiy xarakteriga qarab milliy va umuminsoniy, sinfiy yoki diniy, shuningdek, kishilarning yoshi, professional hususiyatlariga xos qadriyatlarga bo'lish mumkin.

Pedagog olimlardan N. Oripova [;] ilmiy izlanishlarida qadriyatlarning turlarini quyidagi rasmda ifodalaydi.

2.1.1 - pacm

Qadriyatlarning turlari



Yuqoridagi rasimga nazar tashlasak qadriyatlarning turlari haqida bir butun tasavvur hosil qilishimiz mumkin.

Biz oʻrnayotgan muammo boshlangʻich sinf oʻquvchilari ongida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirish ekan, umummilliy qadriyatlar haqida ham maʼlumotga ega boʻlishimiz darkor.

Faylasuf olim Q. Nazarovning [37; 196] umuminsoniy qadriyatlar haqidagi fikriga toʻxtalib oʻtish joiz boʻladi. Olimning fikricha: "Umuminsoniy qadriyatlar" jamiyat va odamzod uchun eng qadrlil narsalarning ismi, nomi yoki atamasi emas, balki ularning ahamiyatini hamda ijtimoiy qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy-aksiologik tushunchadir. Bizning davrimizga kelib umumiisoniy qadriyatlar har qanday umumiy qadriyatlar tizimining markaziy va asosiy boʻgʻinlaridan biri boʻlib qolganligining sabablari quyidagilardir:

- Yer sayyorasini olamdagi hamma kishilar uchun, ularning irqi, millati, eʼtiqodi, toifasi va boshqa tabiiy tarixiy hamda ijtimoiy farq-tafovutlaridan qatʼiy nazar, eng umumiy makon, cheksiz koinotdagi moʻjazgina yulduz ekanligini tobora yaqqolroq his etila boshlanganligi;

- olamdagi ijtimoiy xilma-xillik, siyosiy va mafquraviy rang-baranglik, turli xil ehtyoj, qiziqish, maqsad, iitilish, hatti-harakat, faoliyatlarni uygʻunlashtiradigan, jahon rivojlanish jarayoni va umumbashariyat talablariga mos keladigan eng umumiy maʼnaviy mezonlarga muhtojlik sezila boshlanganligi:

- dahshatli qirgʻin qurollari, yadro urushi, ekologik boʻhronlar va maʼnaviy tanazzul kabi xavflar bilan yuzma-yuz kelish natijasida insoniyat kelajagi, Yer-sayyorasi aholisi umumiy genofondi taqdiri xavf ostida qolganligi, Yerdagi insoniyatni hozirgi avlodi mansub boʻlgan sivilizatsiyani saqlab qolish ehtiyojlari;

- kishilarni turli ijtimoiy tuzumlar va davlatlarda yashashidan qatʼiy nazar, hamma joyda eng asosiy maqsad - inson, uni tirikligi va mazmunli hayoti ekanligini, bunday hayotni taʼminlashda butun jahon ahamiyatiga molik universal

texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari, ularni hamma mamlakatlarda qo‘llash imkoniyatlari umumiylikini, buimkoniyatlarni umumjahon voqeligiga aylantirish uchun umumsayyoraviy hamkorlik zarurligini tobora ko‘proq anglab olayotganligi” kabi fikrlarni bayon etadi.

Shuningdek, olimning fikrini to‘ldirgan holda umummilliy qadriyatlar negizini tashkil etuvchi barcha xalqlarning an'ana, urf-odat va ajdodlar ma'naviy merosida shaxs kamolotiga oid ajoyib fikrlar ham borki, ular o'quvchilar ongini shakllantirishda muhim, qimmatli manba bo'la oladi. Jumladan, umummilliy qadriyatlardan biri masalan, axloqiy qadriyatlarning o'quvchilarni tarbiyalashda ahamiyati nechog‘li kattadir. Umummilliy axloqiy qadriyatlar kishilarning bir-birlariga, o'zlari mansub jamoaga, Vatanga nisbatan tarixan munosabatini ifodalaydi. Axloqiy qadriyatlar kishilarning o'zaro muomalasida, yurish-turishida, odob-axloqida namoyon bo'ladi. Har bir millat o'zining axloqiy qarash va normalariga ega. Jumladan o'zbek xalqining axloqiy qarashlari va normalari davr sinovlaridan o'tib, bizgacha yetib kelgan hamda xalqimiz uchun qadriyat sifatida e'zozlanib kelinadi. Bir millat qadriyatlari ba'zan boshqa millat iadriyatlarining ijobiy tomonlarini ham o'zida aks ettiradi. Jumladan Islom ta'limotida mavjud bo'lgan qadriyatlar ya'ni ezgulik, saxiylik, bag‘rikenglik, shukronalik, halollik, ilm egallshga intilish kabilar ko‘plab millat vakillari tomonidan tomonidan yaxshi qabul qilinib, o'zlashtirib olingan va amal qilinib kelinmoqda.

Olim [37;196] umuminsoniy qadriyatlarni namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganishda quyidagilarga e’tibor berish lozimligini ta’kidlaydi:

- butun insoniyatga xos bo‘lgan tabiiy-tarixiy jihatlar: inson vujudining tirikligi, sihat-salomatlik, ijtimoiy faoliyatga qobilligi, ongi, bilimi, muomala vositasi;
- jamiyat tarixi, o‘tmishi, kelajagi, umrguzaronlikning asosiy talablari, tartiblari, qonun-qoidalari, avloddan-avlodga o‘tadigan an’analar, urf-odatlar, marosimlar va boshqalar;

- jamiyat a'zolarining eng yuksak orzu-umidlari, ezgu-niyatlari, ideallari, g'oyalari, maqsadlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, ular bilan bog'liq hatti-harakati, faoliyati, o'zaro munosabatlari;
- madaniyat, ma'naviyat, fan, din, huquq, siyosat, mafkura va ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan bog'liq yutuqlar, kashfiyotlar, yaratilgan boyliklar, ta'lim-tarbiya va ma'naviy kamolotning yo'nalishlari, usullari, vositalari;
- ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ma'naviy, milliy, sinfiy, diniy, irqiy betakrorlik va rang-baranglik, ijtimoiy taraqqiyot va tanazzul, rivojlanishning evolyutsion va revolyutsion yunalishlari;
- insoniyat rivojining hozirgi davri bilan bog'liq mintaqalar, ijtimoiy tuzumlar, davlatlar oldida turgan va butun jahon ahamiyatiga molik eng umumiy olamshumul muammolar, dolzarb vazifalar; kelajakning istiqbollari,
- sayyoramiz hududlari, davlatlari va ijtimoiy tuzimlaridan qat'iy nazar, hamma uchun umumiy foydalanish imkonini beradigan universal texnologiyalar, ishlab chiqarish, boshqarishni tashkil qilish, kosmanavtika, kibernetika va boshqa yo'nalishlardagi umumjahon jamiyatiga ega bo'lgan jarayonlar.

Umuman olganda muayyan davrda umuminsoniy qadriyatlarni aniq shakllari o'z ahamiyati, zarurligiga ko'ra bir-biridan nisbatan farq qiladigan xalqlar yoki bo'g'inlardan iborat umumiy qadriyatlar tizimini hosil qiladi. Kishilar o'zlarini o'rab turgan olam, undagi narsa va hodisalarga, hayotdagi voqealarga, boshqalarning faoliyati va o'zlarini hatti-harakatlariga mazkur tizimda biror o'rinni egallab turgan qadriyatga mos kelishi yoki kelmasligiga qarab ham munosabatda bo'ladilar. Shu nuqtai nazardan ularning ahamiyati, zarurligi, foydasi va ziyoniga xos chegaralarini belgilab oladilar hamda hayotda ana shu chegaralar doirasida faoliyat yuritishga harakat qiladilar.

Umuminsoniy qadriyatlar orasida ularning eng muhim mavqeiga ega bo'ladiganlari ham bor. Bular: **inson vujudining tirikligi, uni ijtimoiyligi, inson umri va hayoti, sihat-salomatligi, ijtimoiy faoliyati va munosabatlari, mehnati, bilimi, muomalasi va boshqalar.**

Umuminsoniy qadriyatlar sifatida tilga olinuvchi ma'naviy va axloqiy qadriyatlar: **yaxshilik; nafosat, saxiylilik, ezgulik, adolat, or-nomus, vijdon, do'stlik; muhabbat; vatanparvarlik, olijanoblik** va hokazo kabi qadriyatlar ham mavjudki, ushbu qadriyatlarga nisbatan teskari ma'noni anglatadigan yomonlik, hunuklik, chaqimchilik, g'iybatchilik, yolg'on, tengsizlik, adolatsizlik, nafrat, vatanpurufshlik, hiyonat va boshqalar hayotda uchrab turadiki, ular yuqoridagi ijobiy qadriyatlarning qadri baland bo'lishiga olib keladi.

Umuminsoniy qadriyatlar jamiyatning ma'naviy-siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatlari bilan bog'liqlikda ham namoyon bo'ladi. Masalan, an'analar xuddi shunday qadriyat sanaladi. Chunki an'analarni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida uchratish mumkin.

Bugungi kunda axloqiy qadriyatlar umumilliy qadriyat sifatida tilga olinmoqda. Negaki, axloq jamiyatda yashovchi kishilarni tartib –intizomga chorlovchi mezon hisoblanadi. Ayrim mamlakatlarda sodir bo'layotgan axloqsizlik holatlarining yuzaga kelishi axloqiy qadriyatlarni yoshlarga o'rgatishning ayni vaqti ekanligi bildiradi.

Shuningdek, yosh avlodga barchamiz uchun yagona vatan hisoblangan Ona Sayyoraning umumilliy qadriyat ekanligini anglatishimiz, uning sofliqi, boqiyliqi uchun qayg'urmoq lozimligini tarbiyalab borishimiz kerak. Bunda ilk bor o'quvchilarda o'z vatani, shahar-qishlog'i, mahallasini qadrlash, sevish, asrab-avaylash to'yg'usini shakllantirishimiz kerak bo'ladi.

Demak, umuminsoniy qadriyatlar va ularning asosiy shakllari xilma-xil tarzda va turli darajalarda namoyon bo'ladigan, g'oyat murakkab, mazmunan nihoyatda boy va keng qamrovli ijtimoiy tushunchalardir.

1.2. Sharq halqlari tarixida qadriyatlar muammosining yoritilishi

Har bir millatning ma'naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning birligidan tashkil topadi. Milliy qadriyatlar o'tmishning yutug'i. Uni to'la, odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodlarning vazifasidir. O'z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik madaniyatsizlikdir. Ularni boyitib yuksak darajaga ko'tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqboli uchun katta ziyondir. Ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan insongina mustaqillik ravnaqi uchun kurashga o'zida kuch topa oladi.

Demak, milliy qadriyatlarni o'rganish, ularda olg'a surilgan g'oyalarga amal qilish, ularni kelgusi avlodlar ongiga singdirish jamiyat har bir a'zosining vijdon oldidagi, Vatan oldidagi burchidir. Mustaqil Respublikamiz istiqbolini belgilovchi har bir fuqaroning o'z burchi va majburiyati mohiyatida ma'naviyat va ahloqlikni qayta tiklash; o'zbek halqi asrlar moboynda yaratgan madaniy boyliklarni, noyob tarixiy obidalarni avaylab asrash va kelgusi avlodlarga qoldirish tadbirlarini ko'rish; qadimiy va zamonaviy halq qadriyatlarini, adabiyot va san'atni bilish va rivojlantirish; o'zbek tilini taraqqiy ettirish; boshqa halq vakillarini hurmatlash kabi shartlarni amalga oshirish yotadi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanishning alohida o'rni bor. Quyida biz yurtimizning o'tmish madaniyatida qadriyatlar muammosi qanday ahamiyat kasb etganligi va ilm ahli tomonidan qay tariqa yoritilganligini qisqacha tahlil qilamiz. Qadriyatlar muammosining tarixiy tahlili zaminimizda yaratilgan qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hiqoyat, dostonlarga, ya'ni halq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Halq og'zaki ijodida ko'proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor berilgan, ularning mohiyati, mazmuni turlicha talqin qilingan. Spetamen, Alpomish, To'maris va Shiroq to'g'risidagi dostonlarda vatanparvarlik, halq va yurt ozodligi uchun fidoyilik ruhi badiiy tasvirlangan. Bu dostonlarni qadimgi yunonlarning "Iliada" va "Odisseya" dostonlari bilan qiyoslash mumkin". Qadimgi odamlar borliq to'g'risida o'ylaganlarida, afsona, hiqoyat yoki dostonlar so'ylaganlarida

olamning qadri, uning cheqsizligi, qoinot va odamzod aloqalari, inson umrining ma'nosi, mazmuni, maqsadi hamda botirlik, oqillik, hokisorlik, yahshilik, vafodorliq, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga izoh berganlar, hatto ularning ba'zilarini ilohiylashtirganlar.

Qadriyatlar mavzusi diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimgi shaqllarida ham o'z aksini topgan, har bir din o'ziga hos ilohiy qadriyatlar tizimiga ega. Ular bir-birlaridan ana shu qadriyatlar tizimi bilan ham farqdanadilar. Milliy va jahon dinlarining asosiy kitoblari Qur'on, Injil, Veda, Upanishad va boshqalarda muayyan ilohiy qadriyat tizimlari o'z ifodasini topgan. Dinlarning tarixiy shaqllari taqomillashib borgani sari, ulardagi qadriyatlar tizimi ham yangi qirralarini namoyon qilib boravergan.

Ajdodlarimizning qadimgi kitobi Avesto [11;400] diniy-falsafiy merosimizning eng yorqin namunasi, qadimgi halqlarimizning umuminsoniy qadriyatlari yoritib berilgan asardir. Avesto zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga kitobda umuminsoniy qadriyatlarga, ularning inson ma'naviyati va amaliy faoliyati uchun ahamiyatiga katta o'rin berilgan. Asarda yahshilik, barkamollik, hurfikrlilik, insonparvarlik kabi hislatlar Ahuramazda qiyofasi orqali ko'rsatilgan. Kitob mualliflaridan biri Zaratushtra (Zardusht) fikricha, odamlar yahshilik, yorug'lik kuchlariga ergashishi, yahshilikni yomonlikdan, adolatni haqsizliqdan farqlab olishi, hayoti davomida Ahuramazda tomonida bo'lishi lozim. Insonning bu jarayondagi qadri esa, yaxshilikning g'alabasi uchun kurashda befarq turmasligida, yashash tarzida, ma'naviy qiyofasida, ijtimoiy faolnyatida o'z ifodasini topadi.

Avestoda yurtimiz zaminida yashagan halqlarning islomgacha bo'lgan davrdagi tabiiy-ilmiy, ayniqsa, ahloqiy qadriyatlarining rivojlanishi tarixiga oid g'oyat qiziq manbalar borki, ularni yanada chuqur o'rganish lozim.

Markaziy Osiyoda qadriyatlar to'g'risidagi qarashlar rivojida VIII-XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda arab istilosi amalga oshirilgan, islom rasmiy

hukmron dinga aylangan, ijtimoiy-siyosiy hayotda muayyan tinchlik hukm surayotgan edi.

Islom dini Osiyoda faqat arablarning dini bo'lib qolmadi, u ko'pgina sharq halqlarining ham umumiy diniga aylandi. Alohida e'tirof etish kerakki, Qur'onda [40;617] ta'riflab berilgan ilohiy qadriyatlar halqlarimiz tarixi va madaniyatiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sirning ahamiyatini turlicha baholash, tahlil qilish mumkin, ammo uning o'tmishda ham, hozir ham muayyan qadrga ega ekanligini inkor qilishning iloji yo'q. Zaminimizda yashagan har bir mutafakkir, olim, alloma ijodida islom dini ilohiy qadriyatlarining ta'siri yaqqol sezilib turadi. Shu bilan birga islomning yurtimizda tarqalishi va arab istilosi davrida ko'pgina milliy qadriyatlarimizning yo'qotib yuborilganligini alohida qayd qilmoq kerak. Bu to'g'rida Beruniy "Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar" [17;488] asarida afsus bilan yozib qoldirgan.

Kezi kelganda yana shuni alohida ta'qidlash kerakki, vatanimiz sivilizatsiyasining qadriyatlari arablar dunyosi madaniyatining rivojiga ham katta aks ta'sir ko'rsatganligi shubhasiz. Abu Nasr Forobiy [21; 224], Beruniy [17; 488], Ibn-Sino [27; 182] kabi mutafakkirlar, al-Buhoriy [14; 550], at-Termiziy [49; 478] kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari Navoiy [36; 389], Bobur [16; 286] kabi zotlarning kamolotida nafaqat islom, balki sivilizatsiyamiz madaniyati va qadriyatlarining ta'siri beqiyos. Ularning islomga, uni zamona zayllari orasidan o'tishi jarayoniga ta'sirlari to'g'risida mahsus tadqiqotlar olib borish mumkin. Zamonaviy islom ilohiyotchilarining al-Buhoriy [14; 550] asarlarini Qur'ondan keyingi muqaddas kitoblar sifatida tan olayotganliklari, al-Buhoriy, at-Termiziy, Yassaviy va Naqshbandning qabrlariga muqaddas sajdagohlar sifatida sig'inishlari bejiz emas! Manbalar yetarli bo'lishiga qaramasdan yurtimiz sivilizatsiyasining islom dini rivojiga va azaliy islom mamlakatlarining madaniyati taraqqiyotiga aks ta'siri to'g'risida yozilgan asarlar haligacha yetarli emas, bu to'g'rida tadqiqotlar olib borish zaruriyati allaqachon yetilgan.

Islom dini yurtimizga kirib kelganidan keyingi davrlarda ichki urushlar nisbatan barham topgan, ijtimoiy hayotda nisbatan barqarorlik hukm surayotgan edi. Bu nisbiy barqarorlik davrida madaniy rivojlanish, ilm-fan hamda adabiyotning taraqqiyoti uchun imkoniyat ochildi. O'sha davrning buyuk mutafakkirlaridan biri Muhammad Muso al-Horazmiy [49;478] halifa al-Ma'mun tashkil qilgan "Baytul hikma"da qatta mavqega ega bo'lgan. U ilgari surgan g'oyalarda qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari izohlangan.

Sharq madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan alloma Abu Nasr Forobiy [21; 224] ham qadriyatlarga katta e'tibor bergan. Forobiyning qadriyatlar to'g'risidagi fikrlarini "Madina al-fozila" ta'limotida yaqqol kuzatish mumkin. Qomusiy olim sifatida Forobiy fozil jamiyat to'g'risidagi ta'limotida yuksak g'oyalar, adolatli ijtimoiy munosabatlar qaror topgan davrda vujudga keladigan ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarning umumiy tizimini izohlab bergan. Forobiy bunday jamiyatda diniy qadriyatlar ham muayyan ahamiyatga ega bo'lishini, ammo unda kalom (teologiya) va fiqh (huquqshunoslik) vakillari kishilarning ma'naviy-ahloqiy kamoloti uchun javob beradigan sohalarni boshqarishlari, ijtimoiy munosabatlarning asosiy sohalari esa faylasuf-hukmdorlar tomonidan boshqarib borilishini ta'kidlaydi. Mutafakkir diniy qarashlar g'oyaviy sohada eng asosiy ahamiyat kasb etgan o'sha davrda, nafaqat Alloh g'oyasini, balki inson, jamiyat va ilm-fan qadriyatlarini falsafiy bilimlarning asosiy mavzularidan biri sifatida qaray olgan dastlabki Sharq faylasuflaridan biridir.

Qadriyatlar mavzusini Abu Rayhon Beruniy [17; 488] ham chetlab o'tmagan. Uning fikricha, ma'naviy qadriyatlarning vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'langan. Masalan, kishilar o'rtasidagi hamkorlik odamlarning birlashish ehtiyojlari ko'pligi, himoya qilish qurollari kamligi va dushmanlardan o'zini himoya qilish zarurati tufayli vujudga kelgan. Beruniy hunar, savdo-sotiq, mamlakatlararo madaniy-ilmiy aloqalarni kuchaytirish, ijtimoiy hayotda ilm-fanni rivojlantirish, uning rolini oshirishning tarafdori edi. Shu bilan birga u arab bosqinchiligini, ularning yurtimiz madaniy yodgorliklarini

yo'qotish sohasidagi siyosatini qoralaydi, madaniy taraqqiyotda vorislikning zaruriy ekanligini ta'kidlaydi.

Qadriyatlar muammosi Abu Ali Ibn Sinoning [27; 182] ham diqqat markazida turgan. Olim asarlarining katta qismi falsafiy muammolarga bag'ishlab yozilgan, afsuski, ularning ko'pchiligi (masalan, "Adolat" nomli falsafiy ensiklopediyasi, "Sharq falsafasi", "Yahshi ish va gunoh" asarlari) bizgacha yetib kelmagan. Qadriyatlar muammosi Ibn Sinoning "Donishnoma", "Solomon va Ibsol" kabi bizgacha yetib kelgan asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Uning nazarida o'z ibtidosini Allohdan olgan borliq va tabiat insonni o'rab turuvchi abadiy makondir. Shu jihatdan uning qadri beqiyos, inson esa hamma boyliklarni tabiatdan oladi, undan o'ziga davo topadi.

O'rta asrlardagi siyosiy qadriyatlar talqinida Amir Temurning, umumbashariy qadriyatlarning ilmiy tahlilida Ulug'bekning qarashlari katta o'rin tutadi. Podshohlar, hukmdor va siyosiy arboblarning ahloq-odob talablari, davlat va siyosat yuritish san'ati bayon qilingan "Temur tuzuklari"da [15; 64] ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga katta ahamiyat berilgan, asar Sharqda va G'arbda mashhur bo'lgan, ko'p marta chop etilgan. Unda siyosatdonning yurish-turishi, siyosat bobidagi faoliyati, halq, qo'shni, ulamolar, arqoni-davlat va boshqalarga munosabati uchun asosiy mezon bo'ladigan siyosiy qadriyatlar o'sha zamon nuqtai nazaridan bayon qilingan. Temurning tariximizdagi o'rni va mamlakatni ozod qilishdagi hizmati katta. Uning mohir davlat arbobi, tajribali siyosatdon sifatidagi o'git va nasihatlari keyinga davrning siyosiy arboblari uchun qo'llanma bo'lib hizmat qiladi.

Yurtimiz madaniyatida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy [36;389] o'zining asarlarida qadriyatlar masalasiga katta e'tibor bergan. Uning fikrlari ham tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq. Ushbu ta'limot faqat Navoiy emas, balki Sa'diy, Jomiy kabi boshqa o'rta asr mutafakkirlarining qaraishlariga ham ta'sir ko'rsatgan.

Navoiyning odil jamiyat to'g'risidagi qarashlarida umumijtimoiy qadriyatlar tizimi, komil inson ta'limotida esa eng yetuk inson qiyofasiga xos shahsiy qadriyatlar tizimi ta'riflangan, bunda ikki qadriyatlar tizimining aloqadorligi yaqqol ko'rinib turadi. Mutafakkirning ma'naviy qadriyatlar to'grisidagi g'oyalari bugungi mustqillik sharoitida katta ahamiyat kasb etmoqda.

XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida yurtimizda “qadimlar” va “jadidlar” oqimlari vujudga keldi. Hayotda ro'y berayotgan turli o'zgarishlarni o'rganish, umummilliy qadriyatlarimizni jahon taraqqiyoti talablari nuqtai nazaridan tahlil qilish borasida Ismoilbey Gaspirali, M. Behbudiy, So'fizoda, Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Fitrat kabi ilg'or kishilar katta yutuqlarga erishdilar. Qadriyatlar bilan bog'liq muammolar jadidlarning diqqat marqazida turgan, ular sharqona qadriyatlarning tahlili borasida ham qimmatli fikrlarni bayon qilganlar. Bu borada Abdulla Avloniy [12; 160] alohida o'rin tutadi. Uning “Turkiy guliston yohud ahloq” kitobida o'ziga hos ma'naviy qadriyatlar tizimi ta'riflab berilgan. Asarda fatonat, nazofat, g'ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, ilm, sabr, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni sevmok, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok, lafz, iqtisod, viqor, itoat, sadoqat, adolat, muhabbat, avf qabi qadriyatlar – “yahshi hulqlar” degan umumiy nom ostida tahlil qilinadi. “Yomon hulqlar”ga esa g'azab, jaholat, razolat, adovat, qasosat, g'iybat, haqorat, hasad, zulm kabi hususiyatlar misol bo'ladi. Agar ushbu asarda tilga olingan qadriyat nomlariga diqqat qilinsa, o'sha davrda yurtimizda ma'naviy tushunchalarning ko'lami qanchalik keng bo'lgailigini, tilimizning naqadar boyligini kuzatish mumkin. Yuqoridagi atamalar orasida biz allaqachon esimizdan, tilimizdan va balki dilimizdan ham chiqarib yuborgan tushunchalarga duch kelamiz. Tarihning g'ildiragi g'ayri turkiy aylanib, bizni necha o'nlab yillar ulkan merosimizdan judo kilgani, rasmiy ma'naviyat sohasini sharqona qadriyatlar tizimi emas, balki quruq shiorlar egallab olganligi kishini achintiradi holos. “Turkiy guliston yohud ahloq” [12; 160] darslik sifatida bitilgan va unda sharqona ta'lim-tarbiyaning mazmuni, asosiy talablari ham ta'riflab berilgan bo'lib, bu kitob halqlarimiz madaniyatiga yanada kattaroq ta'sir qo'rsatishi mumkin edi. Afsuski,

30-yillarda boshlangan siyosiy jarayonlar Avloniylar avlodining boy merosini o'z domiga tortdi. Qitobning taqdiri ham shunday kechdi, u ta'qiqlab qo'yildi, hatto qutubhonalardan ham topish qiyin bo'lib qoldi. Faqat respublikamiz mustaqil bo'lganidan keyingina uni chop etish imkoni tug'ildi. Ana shunga o'xshash fikrni M. Behbudiy, Cho'lpon, Fitratlarning asarlari to'g'risida ham aytish mumkin.

Demak, yurtimizda qadriyatlar mavzusi o'zining o'tmishiga ega, uning ildizlari esa qadim zamonlarga borib taqaladi. Qadriyatshunoslik tarihining asl durdonalari nafaqat G'arbdan, balki Sharqdan ham qidirilmog'i lozim.

1.3. Boshlang'ich ta'lim jarayonida umummilliy qadriyatlardan foydalanishning mavjud ahvoli

Umummilliy qadriyatlarga amal qilish, ularni e'zozlash barcha millat xalqlarining asosiy burchlaridan biri ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ularni qadrlashni o'rgatish yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, mustaqillikdan keyingi yillarda boshlang'ich ta'lim jarayonida ham umummilliy qadriyatlardan foydalanishga juda katta e'tibor qaratildi. Bu borda boshlang'ich sinflar darsliklarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bugungi kun boshlang'ich sinflar darsliklari o'zining milliyliги, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanganligi va shubhasiz zamonaviyligi bilan ajralib turadi.

Boshlang'ich sinf darsliklari mazmuniga nazar tashlasak, bunda o'quvchilarni halqimizning buyuk tarixi, allomalari, halq og'zaki ijodi, an'ana va urf-odatlar bilan tanishtirish maqsad qilib olinganligi va shuningdek, ularda o'zbek halqi, ona vatan, tinchlik, millatlararo do'stlik, mehnatsevarlik, saxiylik kabilarni shakllantirishga alohida e'tibor berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, birinchi sinf "O'qish" [51; 127] darsligida o'quvchilarga buyuk ajdodlarimiz, allomalarimizning ezgu faoliyatlari, yaratuvchanlik amallari haqida bilimlar berish nazarda tutilgan. Masalan, o'quvchilarimiz "Amir Temur" mavzusida o'quvchilar bobokalonimiz Amir Temur buyuk sarkarda ekanligi, umr bo'yi o'zining "Kuch – adolatda" degan hikmatiga amal qilganligi, juda ko'p

mamlakatlarda adolat o'rnatganligi, Temur bobomizning ishini temuriyzodalardan bo'lgan Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzolar davom etirganligini haqida ma'lumotlar ham berilgan. Shuningdek, ushbu mavzudan sung Amir Temur o'gitlaridan namunalar keltirilgan:

Do'stlik haqida:

Yahshini yamon kunda sina.

Sodiq va vafodor do'st o'z do'stini ranjitmaydi.

Birliksiz kuch bo'lmas.

Shu bilan birga yana aql va adolat haqida quyidagi o'gitlari keltirilgan:

Quch – adolatda.

Oq bo'lsang, ont ichma.

Qo'rqmasang, yov qochar.

Boshga qilich kelsa-da rost so'zla.

Darslikning “So'z mulkining sultoni” matnida bobomiz Alisher Navoiyning buyuk zot ekanligi, shoir, mutafakkir, davlat arbobi bo'lganligi, besh-olti yoshligidayoq ko'plab she'rlarni yod bilganligi, shuningdek, u bizga juda ko'p asarlar yozib qoldirganligi, shu boisdan Alisher Navoiyni «So'z mulki sultoni” deyilishi aytib o'tiladi. Shu bilan birga Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari ham keltirib o'tilgan. Chunonchi, Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim; Oz-oz urganib dono bulur, qatra-qatra yigilib daryo bulur; Yahshi kishi yomonlarga ham yahshiligini unutmas; Yahshilikni bilmasang, yahshilarga qo'shil.

Matn yaqunida o'quvchilar bilimini tekshirish uchun savol va topshiriqlar ham berilgan:

1. Alisher Navoiy haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Alisher Navoiy aytgan hikmatli so'zlarni yod oling.
3. O'zingiz bilgan hikmatli gaplarni ayting.

Shuningdek, bu bo'limda buyuk boboqolonlarimizdan yana biri Ibn Sino to'g'risida ham o'quvchilarga ma'lumot beriladi, Uning mashhur hakim va olimligi aytiladi. Ibn Sinoning asl ismi Husayn ekanligi, shuningdek u yoshligidanoq ilmga

qiziqqanligi, juda ko'p kitob o'qiganligi, natijada esa mashhur hakim bo'lib etishganligi to'g'risida fikr yuritilgan. Ibn Sino davolayotgan kasallariga shunday degan: «Biz uch tarafmiz- men, sen va kasallik. Agar sen, men tarafga o'tib olsangiz, u engiladi. Agar u tomonga o'tib olsang, ikkalangni engishim qiyin» - deb aytib o'tganligi haqida ham so'z boradi.

Mavzu oxirida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini va tushunib olganligini aniqlash maqsadida savollar berilgan:

1. Ibn Sino haqida nimalarni bildingiz?
2. U kishi kasallarga nima degan ekan?

Yana shu bo'limda temuriyzodalardan bo'lgan buyuk munajjim Mirzo Ulug'bek, shoh va shoir Bobur haqida ham alohida mavzular berilgan. Ularning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, yaratuvchiligi, mamlakatni adolat bilan idora qilganligi haqida o'quvchilarga ma'lumot beriladi. Chunonchi, «Buyuk munajjim» mavsida Mirzo Ulug'bekning 15 yoshidan davlatni boshqara boshlagani, 40 yil hukmronlik qilgan davrida ilm-fanga nihoyatda katta hissa qo'shganligi, hozirda ham astranomiklar uchun ham u yaratgan ta'limotlar muhim ahamiyatga egaligi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, u qurdirgani, rasadhonada osmon, oy, yulduzlarni quzatish ishlari bilan shug'ullanganligi haqida fiqr yuritilgan. Mavzu yaqunida o'quvchilarning bilimlarini tekshirish uchun savollar keltirilgan.

“Shoh va shoir” mavzusida o'quvchilar Bobur Mirzo haqida, uning Andijonda tug'ilganligi, uzoq yillarda Hindistonda shohlik qilgani, bizga ko'plab kitoblar yozib qoldirgani aytib o'tiladi. Shuning uchun ham Bobur shoh va shoir deb atalishi va uning quyidagi baydi keltirilgan:

Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidir,

Har kimki, jafo qilsa, jafo topqusidir.

Yahshi kishi qurmagay yomonliq hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.

Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarini tahlil qilar ekanmiz, ularda xalq og'zaki ijodi namunalarini o'quvchilarga o'rgatishga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, T.G'afforova, Sh.Nurullayeva, Z. Mirzahakimovalar [52; 257] tomonidan 2014 yilda nashr qilingan 2-sinf o'qish darsligida quyidagi maqollar keltirilgan: vatanparvarlikka oid "Vatani borning baxti bor, mehnati borning taxti bor", "Vataning tinch - sen tinch", "Vatan qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas", "Olis yo'l otni sinar, og'ir yo'l mardni sinar", "Tilagi yaxshi kamol topar, tilagi yomon — zavol", "Guli yo'q bo'standan yaproq yaxshi, foydasi yo'q yo'ldoshdan tayoq yaxshi", "Otini ayagan yo'lda qolmas, yelini siylagan — cho'lda"; ilm-ma'rifatga chorlovchi "Yoshlikda o'rgangan hunar, o'zingga o'ljaga qolar", "Ilmli ming yashar, ilmsiz bir yashar"; mehnatsevarlikka oid "Tongda qilsang harakat, ishingda bo'lar barakat", "Bog'boning tol ekkani — o'ziga nom ekkani", "Yaxshi yaxshiga yondashtirar, yomon yo'ldan adashtirar", "Yaxshi bo'lsang, o'zarsan, yomon bo'lsang, to'zarsan", "Oltin yerda qolsa ham, bilimli yo'lda qolmas", "Obro'ning onasi — mehnat, otasi — sa'yi harakat" kabi ko'plab maqollar berilganki, ular shubhasiz o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqollarda ifodalangan fikrlar o'quvchilarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, oliyjanoblik, ilm egallashga intilish kabi umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, kitobdagi eng muhim ma'lumot - bu maqol va hikmatli so'zlar nima ekanligi o'quvchilarga tushuntirib ketilgan.

Darslikda hikmatli so'zlar ham ko'plab keltirilgan. Jumladan, "Aqlli kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o'zini saqlashga qaratgan bo'lmog'i lozim", "Har bir kishining qadr-qimmatini o'z ishini qoyil qilib bajarishidadir", "Baxt belgisi ilm va aqlidir" kabi hikmatli so'zlar berilganki, ular o'quvchilarda barkamollik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan.

M.Umarova, X. Hamroqulova, R.Tojiboyevalar [43; 222] tomonidan 2014 yilda nashr qilingan 3-sinf o'qish kitobini tahlil qilganimizda ham "Xalq og'zaki ijodi" nomli bo'lim mavjud bo'lib, unda ertak, maqol, latifa, topishmoq, tez

aytishlardan namunalar keltirilgan. Shuningdek, darslikda vatanparvarlikka oid “Yurting omon-o‘zing omon”, “O‘zga yurtning gulidan, o‘z yurtningning cho‘li yaxshi”, “Ona yerning tuprog‘i ona sutidek aziz”, “Elga xizmat, oliy himmat”, “Vatanni sotgan er bo‘lmas”; do‘stlik haqida: “Baliq suvsiz yashamas, inson do‘stsiz”, “Daraxtni tomiri, odamni do‘st saqlar”; kitob haqida: “Kitobdan yaxshi do‘st yo‘q”, “Kitob bilim manbai”; ilm-fan haqida: “bilimi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni”, “Ko‘p o‘qigan ko‘p bilar”; odob-axloq haqida “Bola aziz, odobi undan aziz”, “Yomondan qoch, yaxshiga yondosh” kabi mavzulardagi maqollar keltirilgan. Ammo darslikda aytishuv, hikmatli so‘zlarlandan namunlar keltirilmagan. Ko‘pincha darslikda berilgan maqollar yodlash uchun mavzuning yakunida beriladi, bunga sabab berilgan maqollar mavzuni to‘ldirish uchun xizmat qilishi bilan birga, mavzuda bayon etilgan fikrlarni xulosalash uchun ham ahamiyatlidir.

Boshlang'ich sinf “Odobnoma” darsligini tahlil qilganimizda ham umummilliy qadriyatlarga keng o‘rin berilganligini, jumladan ko‘plab xalq maqollaridan keltirilganligining guvohi bo‘lamiz. Misol tariqasida keltiradigan bo‘lsak, 2-sinf “Odobnoma” darsligining “So‘zlashish odobi” bo‘limida o‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishga doir quyidagi o‘zbek halq maqollaridan keltirilgan: “Yaxshi so‘zdan olam yashnaydi, yomon so‘zdan odam qaqshaydi”, “Yaxshi so‘z qaymoqqa o‘xshar, yomon so‘z to‘qmoqqa o‘xshar”, “Ota-ona - aziz va mu‘tabar” bo‘limida esa, ota-onani hurmatlash to‘g‘risidagi quyidagi maqollar keltirilgan “Kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo‘l”, “Kimki, ota-onasini ayasa, qadri bo‘lar xalq orasida”, “Yaxshi qiz ona – baxti, Yaxshi o‘g‘il – ota taxti”, “Ota hunari bolaga meros” kabi maqollar berilganki, ular orqali boshlang'ich sinf o‘quvchilarida ota-ona va kattalarga hurmat, mehnatga ijobiy munosabat va vatanga sadoqat, odob-axloq normalariga rioya qilish kabi hislatlar shakllanadi. Shu bilan birga o‘quvchilar farzandning ota-ona va vatan oldidagi burchli ekanliklarini anglab oladilar.

Bugungi kunda pedagogika fanining vazifasi ham ushbu umuminsoniy qadriyatlarni chuqur o‘rganish va ta‘lim-tarbiya jarayonida muvaffaqiyatli

qo'llashdir. Biz xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lmish maqol, aytishuv va hikmatli so'zlarni tahlil qilar ekanmiz, ularning o'quvchilar ma'naviyatiga ko'rsatadigan ta'siri benihoya katta ekanini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Chunonchi o'quvchi yuqoridagi umummilliy qadriyatlarni o'rganar ekan, ularda tinchlikni qarlash, do'stlik, ona tabiatni asrashga intilish, ilm olishga chanqoqlik, mehnatsevarlik kabi hislatlar shakllanadi.

II BOB. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirish imkoniyatlari

2.1. O'quvchilar ongida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirish yo'llari va usullari

Yuqoridagi boblarda ta'kidlab o'tganimizdek, bugungi kunda yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirish, ularning tarbiyasiga jiddiy yondoshish ham pedagogika fanining ham jamiyatimizning oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Negaki, biz bugun tarbiyalayotgan yoshlar shaxs ma'naviyatiga turlicha ta'sir ko'rsatuvchi omillar qo'rshovida yashamoqdalar, voyaga yetmoqdalar. Ba'zi hollarda ularning tarbiyasiga bizdan ana shu "omillar" kuchliroq ta'sir ko'rsatib, ularning hayotiy maqsadlarini, faoliyatini to'g'ri tanlashdan adashtirib, jamiyatdan, ota-onadan, mahalladan yirioqlashishiga olib kelmoqda. Ommaviy madaniyat, terrorizm, diniy ekstremizm, fohishabozlik, odam savdosi kabi illatlarni ana shu nobop omillar qatoriga kiritish mumkin. Ana nobop "omillar" o'z qora niyatlarini yosh avlodda sinab ko'rishdan, ularning ongini zaharlashdan tap tortmayptilar.

Prezidentimiz I. Karimov va hukumatimizni ham ushbu muammo tashvishga solib, ota-onalar, ustozlarni ular bu borada ehiyotkorlikka chorlamoqdalar: "Takror aytishga to'g'ri keladi – ota-onalar, ustoz murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo'qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo'lmasligimiz zarur" [7; 176]

Mana shu fikrdan ham ko‘rinadiki, yosh avlod tarbiyasi kechiktirib bo‘lmas masaladir. Buning oldini olish uchun esa so‘zsiz yoshlarni har qanday illatlardan himoya qilishimiz, tarbiyasiga befarq bo‘lmay, ularda umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyani shakllantirishimiz lozim bo‘ladi. Xalqimizda bir dono naql bor, “bo‘lar bola boshidan”. Bu naqlning ma‘nosi shuki, yoshlar tarbiyasini bolalikdan boshlamoq zarurdir. Bolalik deb atalmish davr o‘zining beg‘uborligi, o‘yinqaroqligi, qiziquvchanligi bilan ajralib turadi, biroq ana shu davrda berilgan bilim va tarbiya uning xotirasida mustahkam qolib, kelajakda hayotda o‘z o‘rnini topishida asosiy rolni o‘ynaydi. Shuning uchun biz umummilliy tarbiyaga xos bo‘lgan do‘stlik, tinchlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, ona-tabiatni asrash, boshqa millat vakillariga nisbatan hurmatda bo‘lish kabi tushunchalarning mazmuni va mohiyatini, ularga amal qilishni bolalikdanoq anglatib bormog‘imiz darkor.

Bizga ma‘lumki, maktablarda asosiy bilim va tarbiya dars jarayonida berib boriladi. Eng muhim e‘tibor ham ana shu jarayonga qaratiladi. To‘g‘ri hech bir ta‘lim shakli dars o‘rnini bosa olmaydi. Biroq darslarni to‘ldirish, ularda olingan bilimlarni mustahkamlash, amalda qo‘llay bilishda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning alohida o‘rni borligini unutmasligimiz lozim.

Sinfdan va maqtabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning qiziqishi, ehtiyojlariga binoan hamda jamiyatimiz talabiga ko‘ra o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonining davomi sifatida tashkil etiladi. U o‘quvchilarning yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqarib, tashabbuskorligani oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning o‘ziga hosligi shundaki, to‘garak, bayram dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o‘quvchilarning shahs sifatida shakllanishlari, hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Maktabning o‘quvchilar bilan olib boradigan o‘quv mashg‘ulotlaridan tashqari yana bir ta‘lim-tarbiya berishning shakli bu- sinfdan tashqari ishlar nomini olgan. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta‘lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini yo‘lga qo‘yish formalaridan biridir.

Pedagog va maktab ma'muriyati sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda bizningcha quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- Tadbirlar jarayonida o'quvchilarga tinchlik, do'stlik, insonparvarlik kabi umummilliy qadriyatlar haqidagi tushunchalarni singdirishlari va unga amal qilishni o'rgatib borishlari;

- ota-onalarga umummilliy qadriyatlar haqida pedagogik bilimlar tarqatib, bu borada ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish tizimini ishlab chiqishi;

- voyaga yetayotgan yosh avlod qalbida vatanparvarlik umummilliy qadriyatini shakllantirish hamda o'quvchilarni tinchlikni e'zozlashga o'rgatish;

- har bir o'qituvchi tarbiyaviy ishlarni demokratik uslub asosida boshqarishi va o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirib borishi.

-o'qituvchi yuqoridagi ishlarni amalga oshirishi uchun qadriyatlar haqidagi yangi-yangi manbalar bilan tanishib borishi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ilmiy-nazariy, metodik asoslarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi darkor.

Sinfdan tashqari holatda tashkil qilingan tarbiyaviy ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy ehtiyojni qondiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga, ahloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Darslarda olgan bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan bog'lab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Maktab amaliyotidagi holatni o'rganib chiqib, har bir pedagog tarbiyaviy tadbirlarni quyidagi tartibda amalga oshirsalar maqsadga muvofiq bo'lardi, degan xulosaga keldik:

1. Tadbirni qiziqarli ssenariy asosida tashkil etishlari va ssenariy o'quvchilarda umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyani tarbiyani shakllantirishga xizmat qilmog'i lozim;

2. Tadbir o'z mazmuniga ko'ra o'quvchini har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilmog'i lozim;

3. Unda bajariladigan ish turi o'quvchining imkoniyatlari darajasida kelib chiqib belgilanishi;

4.Tadbirni qiziqarli o'tkazish uchun turli o'yin, topshiriq va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishlari va boshqalar.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari tadbirlarni malga oshirishda dastlab tadbir uchun manba to'planadi, u haqida o'quvchilarga tushuncha beriladi, sinf o'quvchilarining barchasini tadbirda ishtirok etishi ta'minlanadi, o'quvchilarning imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda ishlar taqsimlanadi.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir o'qituvchi, eng avvalo, tashkil qilinadigan tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini chuqur o'rganishi, uning natijalariga jiddiy e'tibor berishi va bu bilan o'quvchi shahsiga ijobiy ta'sir etishga intilmog'i, ularda umummilliy qadriyatlarga nisbatan hurmat hissini tarbiyalab borish yo'llarini izlamog'i lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirishda tarbiyaviy soatlarning ham muhim o'rni bor. Tarbiyaviy soat o'quvchilar bilan xaftada bir marotaba olib boriladi va uning yillik o'quv yuklamasi 34 soatni tashkil etadi. Tarbiyaviy soat o'quvchi hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Tarbiyaviy soatda o'quvchilarga odob-axloq, mehnatsevarlik, tinchlik, inson qadri va uning erkinligi, tabiatni ardoqlash kabi mavzulardagi ma'lumotlar beriladi. Ayniqsa, o'quvchilar ushbu mavzularni umummilliy qadriyat ekanligini anglay boshlaydilar. Bugungi kunda o'qituvchilar tarbiyaviy soatlarga puxta tayyorgarlik ko'rishi, o'quvchilar ishtirokida mashg'ulotni tashkil etishga erishmog'i lozim. Ya'ni mashg'ulotni qiziqarli o'tkazish uchun innovatsion texnologiyalar, o'yin texnologiyasi, sahnalashtirilgan dars tipidan foydalanishi maqsadga muvofiq. Ushbu metodlar vositasida tashkil qilingan mashg'ulotlar o'quvchilarning xotiraisida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Shuningdek, ularda faollik, mustaqil fikrlash, ijodiy yondoshish qobiliyatlari ham shakllanib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga umummilliy qadriyatlarni singdirishda **bayram tadbirlarining** alohida o'rni bor.

Bayramlar insoniyat hayotida shu qadar mustahkam o'rin egallaganki, ularni nishonlamaydigan hech bir millat, oila, jamoa topilmaydi. Shuningdek, har bir millat va elatning, xalqning o'z taraqqiyot tarixi jarayonida shakllangan bayramlari mavjud. "O'rta Osiyo xalqlarida jumladan, o'zbek xalqining ham eng qadimiy

davrlardan shakllana boshlagan, asrlar bo‘yi ajdodlardan-avlodlarga o‘tib, bebaho merosga aylangan bayramlari ko‘p. Bu bayramlarning ma‘lum qismi tarixning «sovuq shamollari» - bosqinchilar va turli tarixiy shaxslar–hukmdorlar tayziqiga uchrab, nohaq yo‘qotilgan, ayrim bayramlar esa qarama-qarshiliklarni yengib, ko‘pgina fazilatlardan ajralsa-da, butunlay yo‘qolib ketmagan, yana boshqalari esa xalq hayotidan mustahkam o‘rin olib, bizning zamonamizgacha yetib kelgan” [39;186]

U.Qoraboyevning «O‘zbekiston bayramlari» kitobida o‘zbek bayramlarining tarixiga, shakllanish jarayoni, turlari hamda bugungi kunda yurtimizda nishonlanib kelinayotgan bayramlar haqida keng ma‘lumot beriladi.

Shulardan mustaqillik bayramini olib ko‘radigan bo‘lsak, bu bayramga tayyorgarlikning o‘ziyoq mamlakatimiz aholisiga katta ko‘tarinkilik ruhini baxsh etadi. Bayram oldidan ko‘cha va xiyobonlar bayramona tus oladi. Shahar, viloyat, Respublika miqyosida nishonlash, ommaviy axborot vositalari orqali vatanimizni madh etuvchi kuy va qo‘shiqlarning yangrashi mamlakatimizda yashovchi har bir kishining qalbida vatanga nisbatan g‘urur, iftixor, mehr-muhabbat hissini uyg‘otadi. Bu bayramda kattalar qatorida bolalar ham ishtirok etishadi. Bayram bolalarga shodu xurramlik ulashish bilan birgalikda, namoyish etiladigan milliy kuy va raqslar, lapar va aytishuvlar, latifa va baxshilik san‘ati namunalari orqali milliy qadriyatlar bilan yaqindan tanishadilar.

Xuddi shunday boshqa xalqlarning ham o‘ziga bayram an‘analari mavjud. Ular shu xalqlarning hayotini zaq-shavqqa to‘ldirib kelmoqda. Aynan bizning mamlakatimizda yurtimizda yashovchi boshqa xalqlarning bayramlari ham keng nishonlanadi. Yoki ular ham bizning milliy bayramlarimizni biz bilan birgalikda nishonlaydi. Bu jihat xalqlar o‘rtasida o‘zaro do‘stlik, birodarlik, yaxshi qo‘shnichilik rishtalarini bog‘lashga yordam beradi. Umummilliy qadriyatlarning rivojlanishiga zamin hozirlaydi. Shu bilan birga, barcha xalqlar tomonidan birga nishonlanadigan bayramlar ham borki, ular barcha millat vakillari uchun qadrlidir. Masalan, yangi yil (31-dekabr), xalqaro xotin-qizlar kuni (8-mart), xotira va qadrlash kuni (9-may) va boshqalar. Ushbu bayramlar yer yuzining qaysi

burchagida bo'lishidan qat'iy nazar barcha xalqlar tomonidan keng nishonlanib kelinadi. Shu bayramlarning ishtirokchisi sifatida bolalar ham qatnashadilar. Ular bayramlardan quvonchga to'ladilar. Shubhasiz bu bayramlar maktabda ham nishonlanadi. Masalan, 8-mart arafasida maktablarda onalar, opa-singillarni madh etish uchun bayram tadbirlari uyushtiriladi. O'quvchilar bayram munosabati bilan she'r yodlaydilar, ashula kuylaydilar, raqsga tushadilar. Bu ular uchun har tomonlama foydalidir.

Bayram tadbirlarini o'quvchilar bilan birgalikda nishonlash uchun avvalo ularga xalqlarning milliy qadriyatlari, bayramu sayillari va urf-odatlar haqida tushuncha hosil qilish, she'rlarni yod oldirish, o'quvchilarning o'zlari chizgan suratlar namoyishini tashkil qilish, milliy urf-odatlar aks etgan ko'rinishlarni tayyorlash bilan bayramlarga tayyorgarlik ko'riladi.

Bayramlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan birgalikda nishonlash, avvalo o'quvchilarda ona-Vatan, tabiat va jonzotlarga nisbatan mehr-muhabbat, oliyjanoblik, insonparvarlik hissini shakllantiradi. Bu kabi tarbiyaviy ishlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligi oshadi, dunyoqarashi kengayadi, asosiysi darsda olgan bilimlari mustahkamlanadi, bunday tadbirlar ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Bayramlarda deyarli barcha sinf o'quvchilari ishtirok etadi, ularga tayyorgarlik jarayonining o'ziyoq bolalarda qiziqishni uyg'otadi. Bolalar bayram munosabati bilan umummilliy qadriyatlar namunalari bo'lmish topishmoq, maqol, tez aytishlarni yod oladilar.

Bizningcha, bayramlar quyidagi tartibda o'tqazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Bayram tadbirining mavzusini tanlash va mavzu yuzasidan materiallar to'plash;

- tadbirning dasturini tuzish;

- bayram tadbiriga mehmonlar taklif etishni rejalashtirish;

- tadbir o'tkaziladigan joyni aniqlash va bezash;

- Bayram tadbirini muvaffaqiyatli o'tqazish va qatnashchilarni rag'batlantirish.

O'quvchilarda umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirishda sinfdan tashqari tadbirlarning yana bir shakli sayohatlardir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyani singdirishda tarixiy obidalar, muzeylar va ona tabiat qo'yniga uyushtiriladigan sayohatlarning ahamiyati katta. Sayohat davomida o'quvchilar bevosita tarix va bugun bilan ro'baru keladilar. Kuzatilayotgan obyektning qaysi yillarda va kim tomonidan barpo etilganligi, uning bugungi kunda qay ahvoldaligini kuzatadilar hamda shu kuzatish jarayonida bolalarda vatanparvarlik, ona tabiatni asrash, tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lish, insonlar mehnatini qadrlash, tarixiy obidalarni o'rganishga qiziqish shakllanadi. Sayohat haqida o'qituvchi o'quvchilarga xabar berishi bilan ularda ko'tarinki kayfiyat hosil bo'ladi. Chunki sayohatlar uyushtirish orqali bolalarda dars jarayonida hosil bo'lgan zerikish, toliqish alomatlari bartaraf etiladi. Bu yoshda bolalarning tabiat va tevarak-atrofni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ustun bo'ladi. Ularning bu ehtiyoj va qiziqishlari sayohatlar yordamida qondirib boriladi.

Sayohatlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin: atrof-muhit bilan tanishish, tarixiy obidalarga sayohat, vatandoshlar mehnatini kuzatish bilan bog'liq sayohatlar. Birinchi sinflarda atrof-muhit, ya'ni maktab hovlisi, maktab kutubxonasi, oshxona, sport zali, o'qituvchilar xonasi va boshqalar bilan tanishtirish amalga oshiriladi. O'qituvchi sayohat paytida bolalarni tartib-intizom, o'zini tutish qoidalariga o'rgatadi, safda yurish, oshxona va sinfxonasini ozoda tutish kabi ko'nikmalarni shakllantirib boradi. Asta-sekin sayohatlarning ko'lami kengaytiriladi. Ikkinchi, uchinchi sinflarda muzeylar, tarixiy obidalar, san'at koshonalariga sayohatlar uyushtiriladi. To'rtinchi sinfda esa shahar va tumanlar, xotira maydonlarida mavzuli sayohatlar amalga oshiriladi.

Bu jarayonda asosiy o'rinni o'qituvchi egallaydi. Chunki o'qituvchi ushbu sayohatlar natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlikni shakllantira olishi, qadriyatlarning mazmun, mohiyati haqida tushuncha berishi kerak. Bu jarayonda boshlang'ich sinf o'qituvchisi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak:

- o'qituvchi kuzatilayotgan obyekt haqida to'liq bilimlarga ega bo'lishi;
- o'qituvchi rahbarlikni qo'lga olgan holda, o'quvchilar diqqatini kuzatilayotgan obyektga qarata olishi;
- sayohatning maqsadi aniq belgilab olishi va rejasini ishlab chiqishi;
- sayohat davomida o'quvchilarda ona-tabiatga, insonalarga mehr-muhabbatni shakllantirib borishi;

O'qituvchi tomonidan tashkil etilayotgan sayohatning muddati oldindan belgilab qo'yilishi hamda bundan ota-onalar xabardor bo'lishi lozim. Sayohatlar uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Sayohatga tayyorgarlik ko'rish.
2. Sayohatni o'tkazish.
3. Taassurotlarni xulosalash, yakunlash.

Taassurotlarni xulosalash sayohatdan keyin uyushtiriladi. Bular yozma yoki og'zaki xulosalash, ya'ni sayohat to'g'risida suhbat uyushtirish, insho yoki hikoya yozish bo'lishi mumkin. Xulosalash yakunida o'qituvchi o'rganilgan obyektning ahamiyatiga yana bir to'xtaladi. Ayniqsa, o'quvchilarda umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni anglashlariga alohida e'tibor beradi. Sayohatda faol bo'lgan, jamoat joylarida o'zlarini yaxshi tutgan bolalar rag'batlantiriladi. O'qituvchi sayohat so'ngida o'quvchilarga ular kuzatgan tarixiy obida yoki tabiat qo'yniga uyushtirilgan sayohat to'g'risida insho yozib kelishlarini uyga vazifa qilib beradi. Shu tarzda ular umummilliy qadriyatlar haqida kengroq tushunchaga ega bo'la boshlaydilar.

Biz tanlagan mavzu qadriyatlarga oid tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdirish ekan, bu borada **lo'g'at ishidan** foydalanish ham yaxshi samara beradi. Lo'g'at ishi nafaqat o'quvchi nutq boyligini oshirishga xizmat qiladi, balki, u o'quvchida so'zlarning ma'nosini anglashga va ko'maklashishga ko'maklashadi. Lo'g'at ishida o'quvchilar mavzuga oid tushuncha va atamalarning ma'nolarini o'rganib boradilar. Mavzu yuzasidan mustaqil topshriqlarni o'zlashtirib fikrlash qobiliyatlarini kengaytiradilar. Ayniqsa, o'qish darslari va darsdan tashqari

tadbirlarda olib borilayotgan mashg'ulotlar yuzasidan lug'at ustida ishlash o'quvchi tarbiyasida ham asosiy rolni o'ynaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv dasturida lug'atlar bilan ishlash bo'yicha maxsus soat ajratilmagan va maxsus lug'atlar ham tuzilmagan. Shu bois o'quvchilar so'zlarni tahlil qilishda filologik lug'atlardan foydalanadilar. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga "Lug'at daftari" tuttirib, o'rganilgan yangi so'zlarni yozdirib, ma'nolarini izohlatib boradi. O'quvchilar o'zlashtirgan yangi so'zlari yordamida bog'liq matn tuzadilar. Metodik qo'llanmalarda lug'at ustida ishlash quyidagicha ko'rsatiladi:

a) o'quvchilarni ona tilining lug'at boyligi bilan tanishtirish; b) lug'atimizdagi so'zlarni nutqda to'g'ri, o'rinli qo'llash ko'nikmasini hosil qilish; v) o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ularni yangi so'zlar bilan tanishtirish; g) shevaga xos va tilimizda me'yorlashmagan adabiy tilga xos bo'lmagan o'zlashma so'zlarni nutqda ishlatmaslikka harakat qildirishdan iborat.

Lug'at ustida ishlash o'quvchiga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi, uning fikrlash doirasini kengaytirib, nutqiy jarayon uchun kerakli bo'lgan so'z, imlo qoidalari ustida ishlashga imkon yaratadi. O'quvchilar kundalik faoliyatida eshitadigan ko'pgina so'zlarni ma'no xususiyatlarini anglamaydilar. Lug'atlar ustida ishlash jarayonida tilda qo'llanayotgan va kundalik faoliyatimizda kam uchraydigan yoki butunlay iste'mol doirasi chegaralangan so'zlar ma'nosini bilib oladilar. Bunday so'zlarni o'z nutqida ishlatish, ishlatmasligini bilib boradi. O'quvchilarni lug'at ustida ishlatish asosida ularni adabiy tilda so'zlash, adabiy til me'yorlariga e'tibor qaratish ko'nikmalari ham o'stirib boriladi. Misol uchun "O'qish kitobi" va tarbiyaviy soatlarda berilgan adabiy, ilmiy -ommabop matnlar yuzasidan har darsda o'quvchilarga 5-6 tadan so'z yozdirilib, ularning ma'nolari izohlantiriladi. So'zlarni to'g'ri yozish va o'qish malakalari takomillashtiriladi.

Umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalar bilan o'quvchilarni tanishtirish. Bu ishlarni O'qish kitoblarida berilgan matnlar, ertak, hikoya, rivoyat, maqol va boshqalar yuzasidan olib borish mumkin:

- Umum – barchaga tegishli, hammaga oid

- Millat – xalq, el, o‘zbek xalqi
- Qadriyat – qadr-qimmat, e‘zozli
- Tinchlik – osoyishtalik, xotirjamlik
- Insonpavarlik – insonni e‘zozlash
- Ona sayyora – yer
- Axloq – odob
- Borliq – tabiat, bizni o‘rab turgan atrofimizdagi olam
- Tadbir- bayram, to‘y xasham
- Ilm-ma‘rifat- bilim va boshqalar.

Har qanday matnni o‘qituvchi ifodali o‘qib beradi. Matnda uchragan otanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

Umuman olganda o‘quvchilar ongida umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni singdirish va shu ruhda ularni tarbiyalash metodikasi tizimli va rang-barang tarzda amalga oshirilsa, kutilgan samaradorlikka olib kelishi mumkin.

2.2. O‘quvchilar ongida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirishda o‘qituvchi mahoratining o‘rni va ahamiyati

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga umummilliy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish, anglatish va ularga amal qilishni o‘rgatishda o‘qituvchi mahoratining alohida o‘rni bor. Bizga ma‘lumki, o‘qituvchi o‘z faoliyati jarayonida nafaqat kasbiy bilimga, balki, pedagogik mahoratga ham ega bo‘lishi talab etiladi. Demak, o‘quvchiga bilim berishda kasbiy bilimning o‘zi yetarli bo‘lmaydi, uni yetkazib berish mahorati ham o‘qituvchida shakllangan bo‘lishi kerak. Xuddi shunday o‘qituvchi dastlab umummilliy qadriyatlar haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi hamda uni o‘quvchilarga yetkazib berish mahoratini ham puxta egallashi lozim.

Kishilik jamiyati taraqqiyotida har bir hunar, u yoki bu ijtimoiy siyosiy masalalarni hal qilishda insondai mahorat talab etishini xalq og‘zaki ijodiyotida,

yozma yodgorliklarda, afsona, doston, ertak, qissa, hikoyat, rivoyatlarda hamda hurfikrli, dono ma'rifatparvar mutafakkirlarimizning asarlarida turlicha talqin etilgan. Xo'sh o'qituvchi o'quvchilarga umummilliy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirishda qanday mahorat ega bo'lishi kerak?

Demak, u dastlab **muomala mahoratiga** ega bo'lishi talab etiladi. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi, tarbiyalanganligi, odobliligi uning muomalasida namoyon bo'ladi. Muomalani asosiy vositasi til. Xalqimizda shunday naql bor «Bola shirin so'zning gadoyi», bas shunday ekan tarbiyachi muomalasida tilga juda ehtiyotkor bo'lishi kerak. Tili shirin, xushmuomala o'qituvchi eng obro'lidir. Husayn Voiz Koshifiy shunday degan edilar: «Haq vaqtini so'zlar aytursizlar yaxshi so'zdin bo'lakni aytmangizlar va ko'p so'zlamoq ko'ngilni qaro qilur» yoki «Mumkin ersa yaxshi so'z qil oshkor, yaxshi so'zdin xo'b yo'qdur yodgor»; «Nasihatin shirin so'zu muloyimlik birla ibtido qilgan, chunki bu zamonda yumshoqlik va xushro'ylik ko'rgazmayiy nasihat korga kelmas».

Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahoratida eng avvalo til shirinligi, «Shirin so'z ko'ngillar uchun bamisli asaldir» degan edi. Kaykovus o'zining «Qobusnoma» asarida «Suxandonlik bila baland martabal bo'lmoq» zikrida shunday hikoyatni keltiradi: Xorun-ar Rashid bir tush ko'rdiki, og'zidan barcha tishlari to'kilmish. Erta tong turib bul tushning ta'birini aytuvchini chaqirib so'radikim, .. bu tushning ta'biri nedur?», «Andog'kim, sendan o'zga hech kim qolmagsidir». Bu so'zni eshitibog'on Xorun ar-Rashid "Mening yuzimga bundoq dardlig va anduqlig' so'zni aytding.

Mening barcha qarindoshlarim o'lsalar, so'ngra men qandog' ishga yararman va na yanglig' ruzg'or so'rarman?» – dedi va unga yuz tayoq urmoq buyurdi.

So'ngra yana bir ta'birchini chaqirib so'radi.

...Ta'birchi dedi: «Ey amir al mo'min-in, sening umring barcha akrabotlaring umridan uzoq bo'lur» Xorun ar-Rashid: dedi: «Barcha aqling yo'li birdur va ikkovingning ta'biring negizi bir erga borur, ammo bu iborat bila ul iboratning orasida farq bag'oyat ko'pdur». Buyurdi so'nggi ta'birchiga yuz tillo berdilar.

Bir donishmand jamoaga qarab: – bir gapim bor, uni ming so'mga sotaman, istovchilar bo'lsa marhamat! – dedi. Suhbat ishtirokchilari hayron qolishib «qanday gap ekan» – deb so'rabdilar. Shunda donishmand, bu gap: – «o'ylab ish qil»! degani, debdi, donishmandning bu g'oyasidan shuni anglamoq lozimki, o'ylab ish qilgan odam muomalasida qiyofasi bo'lishi (bosh, yuz va xatti-harakatlarini odob yuzasidan boshqarishi) kerak ekan.

Qo'pol, odobsiz gaplarga o'rin qoldirmaslik, bola ishtaxsiga tegadigan qo'pol muomala qilish o'qituvchining izzati va obro'siga putur etkazadi.

Pedagog olim Suxomlinskiy muomala mahoratini kuchi va uning yashirin sirlarini “Bolalarga fido” asarida shunday bayon etkan edi: «... Yuksak tuyg'u madaniyatga ega bo'lgan o'qituvchi bog'chaning kayfiyati noxushligini darhol fahmlaydi. Bu eng avvalo uning ko'zidan bilinadi, ...U bola ko'nglidagi tashvishni sezganini, qanday yo'l bilandur ma'lum qilish yo'lini topadi. ...Keyin bolani tanho topib, surishtirishi ham mumkin....Bolaning ahvolini tushunish, unga hamdard bo'lish, madad berish kerak.

Ko'pincha hamdardlik, rahmdillik chin ko'ngildan gaplashish bolaning diliga xush keladigan eng yaqin yordam bo'ladi. Beparvolik, loqaydlik esa bolaning dilini larzaga soladi!»). Bola qalbini nurafshon qiluvchi vosita o'qituvchining jonli so'zi, uning ruhini tushiruvchi ham o'sha so'zning bayonidir. Xalqda «Gapdan gapning farqi bor, o'ttiz ikki narhi bor» deb bejiz aytilmagan.

Tarbiyachining adolat bilan ish tushsh mahorati. Adolat iymon – e'tiqodni, pok niyatga eltuvchi haqni nohaqdan ajratuvchi bir o'lchovdir. Adolat insonlar hulqiii baholovchi muhim mezondir. O'tmish ajdodlarimiz adolat va adolatsizlyakka alohida e'tibor berib bu tushunchani siyosiy, falsafiy, hukuqiy, axloqiy nuqtai nazardan turlicha talqin etab komil insonni tarbiyasida u katta vosita ekanligani u asarlarida bayon etganlar.

Amir Temur saltanatni boshqarishning bosh mezoni adolat deb hisoblagan edi. U o'zining pand nasihatlarida ham yosh avlodni adolatli bo'lishga chorlaydi: «Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdim. ...Qaysi

mamlakatni zabt etkan bo'lsam, o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo'lsa o'z farzandimdek ko'rdim» degan edi.

Voiz Koshifiy «Axloqi Muhsini» asarida shunday yozgan edi: «Adolat – bu insonlarni bir-biriga yaxshilik ko'rsatishidir».

Adolat va adolatsizlik asriy ko'rinishlari insonni qilmishi. harakati, tili muomala, madaniyati, tashqi qiyofasida o'z aksinn topadi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati. Tarbiya jarayonida pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati o'quvchiga u yoki bu yuksak axloqiy sifatlarning mohiyatini anglatish jarayonida qo'llanadigan o'qituvchi-tarbiyachining ish usullaridan biridir.

O'qituvchi III sinfda «Ertak ketidan ertak» mavzusidagi suhbatida o'quvchilarga dastlab ertak mazmunini bayon etadi:

«Ota o'z 10 yashar o'g'li bilan daladan qaytayotib, yo'l ustida tushib yotgan bir taqani ko'radi va o'g'liga deydi: Taqani ol!

Eski taqa uchun egilib o'tiramanmi – deb gap qaytardi o'g'li. Otasi indamasdan o'zi egilib, taqani oladi-da, yo'lida davom etadi. Kun issiq edi. Bola chanqay boshlaydi. Bir oz yo'l yurganidan keyin olcha sotib o'tirgan baqqol ko'rinadi. Otasi boyagi taqani olchaga almashtirib, belbog'iga tugib oladi. O'g'liga ko'z-ko'z qilib, bir dona olchani og'ziga tashladi-da, bir donasini erga tashladi. O'g'li darrov egilib olchani oladi va chanqog'ini bostirmoqchi bo'lib og'ziga soladi. Otasi olchani ketma-ket tashlaydi. O'g'li o'n-o'n besh marta egilib, olchalarni terib olib eganidan so'ng nihoyat otasi to'xtaydi va belbog'ida qolgan olchalarni o'g'liga uzata turib deydi:

Ko'rdingmn o'g'lim, sen taqani ko'tarib olish uchun bir marta egilishga eringan eding, olchalarni terib olish uchun o'n-o'n besh marta egilding. Bundan keyin esingda bo'lsin, agar engil mehnatni og'ir deb hisoblasang, undan battar og'iriga duch kelasan».

Bu ertakdagi pedagogik ta'sirning salbiy va ijobiy ko'rinishlarini bolalarga izohlashda o'qituvchi quyidagi savollar orqali tarbiyaviy mahorat bilan aniqladi.

otani talabi to'g'ri-mi, yoki yo'q-mi? Sababini ochib bering.

otani bolaga mehnatdan bosh tortmaslik uchun tutgan ish usuli to'g'ri-mi? Bolaga dastlab o'z harakati bilan o'rnak bo'lib, so'ng xatosini tushuntiradi.

bu borada sizlarni fikr va munosabatlaringiz qanday?

Tarbiya jarayonida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning kuyidagi usullaridan foydalanildi:

Bolaga qo'yilgan talab, pedagogik ta'sir ko'rsatish.

O'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchi-tarbiyachi o'z maqsadiga erishish uchun doimo o'kuvchilarga o'z talablari bilan yondashadi. Ularni rag'batlantirdi, ogohlantirdi, tanbeh berdi.

O'qituvchi-tarbiyachini pedagogik asosida qo'yilgan talablarini tushuntirish, nojo'ya harakatlardan bolalarni saqlash, ayniqsa kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini maktab va jamoaga moslashgunga qadar ketma-ket talablar qo'yiladi.

Yuqoridagi talablarning qanchalik ta'sir etishi tarbiyachining pedagogik mahorati va obro'yiga bog'liqdir. Talablarning qo'yilish shakllari:

- tarbiyachin tomonidan talabni to'g'ri qo'yilishi.

Bunday talab bolalar jamoasi bilan yashlashni dastlabki bosqichidir. Ijodkor-pedagog A.S.Makarenko «... Samimiy oshkora, ishonarli, qizg'in va qat'iy talab bo'lmasa, jamoani tarbiyalashni boshlab bo'lmaydi, degan edi. Bunday talablar jamoani bir maqsad yo'lga boshlash uchun:

- talabni ijobiy va bolaning xatti-harakatlariga to'sqinlik qilmasligi;
- talab aniq va tushunarli bo'lishi;
- qo'yilgan talab natijasini bilish;
- talab ochiq chehra, samimiy bir ohangda berilishi: iltimos, maslahat, yaxshi niyatta chorlash;

- talab bolalarning yoshi, bilim saviyasiga mos bo'lishi;

- talablarda kesatish, luqma, minnat qilib bo'lmasligi va boshqalar.

Tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishning yana bir shakli o'quvchi va o'quvchilar jamoasini istiqloq yo'lga boshlashidir. Bunda jamoada tarbiyachi va

tarbiyalanuvchilar o'rtasida oshkora va ishonch bo'lishi, o'z-o'zini boshqarish, an'ana va qonunlarga amal qilinishi muhimdir.

Tarbiyachining o'quvchilar jamoasini jipslashtirishdagi mahorati. Kishilik jamoasi paydo bo'lgan davrdan boshlab inson hech qachon yolg'iz yashay olmagan. Jamoani tashkil qilish va uning tarbiyaviy ta'sirining nazariy va amaliy asoslari mutafakkir va olimlar tomonidan o'rganib ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tarbiyachining navbatdagi vazifasi bolalar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jipslashtirish borasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib, ilg'or tajribalarga suyanib o'quvchilarni tarbiyaviy jarayonda o'rtoqlik-do'stlik, o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, o'z-o'zini tarbiyalash va boshqarish kabi jamoatchilik sifatlarini tarbiyalash mahoratini o'zlashtirishdan iborat. Ular:

- sinf boshlang'ich jamoasini tarbiyalash va ularda o'zaro munosabat aloqalarini yaratish.

- o'quvchilar kundalik faoliyatlarining hamma qirralarida jamoaga jipslashtirish.

- shaxsiy manfaatdan jamoa manfaatini yuqori qo'yishga o'rgatish.

- jamoada bir-biriga mehr-oqibatli, muruvvat va sahiylik, do'stona hamkorlik mavjud bo'lsa, u katta tarbiyaviy kuchga aylanadi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilar jamoalari tashkil qilishda o'qituvchidan turli-tuman usul va vositalardan mahorat bilan foydalanish talab qilinadi:

1. O'qituvchi jamoa a'zolarini yangi sharoitga (maktabning I sinfidan boshlab) moslashuv davrida ularga ishonch, xurmat, xushmuomalalik, talablarni to'g'ri qo'ya bilish shu bilan birga o'quvchini tushunish va eshita bilish mahoratiga ega bulish talab etiladi;

2. O'quvchilar jamoasidagi etaklovchi kuch tayanch o'zagini tanlash;

3. Jamoa a'zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish;

4. Jamoada yangi an'ana, qonun-qoidalarni dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish;

5. Jamoa istiqbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash talab qilinadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, pedagogik mahorat egasi bo‘lish o‘qituvchining kasbiy faoliyatini to‘ldiradi hamda o‘quvchilarda umummilliy qadriyatlarga nisbatan hurmatni shakllantiradi. O‘qituvchi chiroyli muamalasi, ravon nutqi orqali o‘quvchilarning umummilliy qadriyatlar haqidagi tavsurlarni hosil qilsa, pedagogik ta’sir ko‘rsatish mahorati bilan o‘quvchilarga qadriyatlarning asl mazmunini tushunib olishlariga yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchi umummilliy qadriyatlarni nafaqat bir o‘quvchiga balki, o‘quvchilar jamoasiga yetkazib beradi va ularni qadriyatlarni o‘rganishga qiziqishni shakllantiradi.

Demak, o‘qituvchi mahorati o‘quvchilarda umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni hosil qilishda asosiy rolni o‘ynaydi, desak xato bo‘lmaydi.

2. 2. Tajriba-sinov ishlari tahlili

Muammo yuzasidan tajriba-sinov ishlarini Qarshi шахридаги 29-ўрта умум таълим мактабининг 4-sinflarida olib bordik. Tajriba-sinov avvalida tanlagan mavzumiz yuzasidan jami bo‘lib, 12 soat dars mashg‘ulotini kuzatdik, tajribali o‘qituvchilarning ish faoliyatlarini o‘rganib, kerakli ma’lumotlarni to‘pladik. Unda jami bo‘lib 12 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 66 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Ularning 34 nafari tajriba, 32 nafari esa nazorat guruhi o‘quvchilaridan iborat edi.

Tadqiqot ishlarida dastlab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning umummilliy qadriyatlar, ularning turlari haqidagi bilimlarini aniqlashga harakat qildik. Ularga quyidagi anketa savollari bilan murojaat etdik.(Ilova-1) Anketa-so'rovlarining natijalari quyidagi jadvallarda aks etgan:

O‘qituvchilarning qadriyatlarni bilish darajasi

1-jadval

T/r	Berilgan savol	Milliylik, insonpavarlik	Qadr-qimmat	Insonning qadri
1	Qadriyat so‘zi qanday ma’noni anglatadi?	0	5	7

O'qituvchilarning qadriyatlar haqidagi fandan xabardorlik darajasi

2-jadval

T/r	Berilgan savol	Pedagogik fanlar tizimiga oid	Falsafa tegishli faniga	Qadriyatlar haqidagi fan
1	Aksiologiya fandan fan?	5	7	0

O'qituvchilarning umummilliy qadriyatlarni bilish darajasi

3-jadval

T/r	Berilgan savol	millatlarning urf-odatlarini, marosimlari, bayramlari, an'analarini, dini, tili va madaniyati	Madaniyat va halq og'zaki ijodini	Barcha millatlar uchun tegishli bo'lgan qadriyatlarni (tinchlik, inson erki, yer sayyorasining sofligi va boshqalar)
1	Umummilliy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?	6	2	4

O'qituvchilarning qadriyatlarga oid manbalar bilan tanishganlik darajasi

4-jadval

T/r	Berilgan savol	Matbuotda (gazeta va jurnal) chop etilayotgan materiallar bilan tanishib boraman	Televizor orqali namoyish etilayotgan ma'lumotlarning o'zi etarli deb o'ylayman	Maktabda olib borilayotgan tag'ibot ishlarining o'zi yetarli deb hisoblayman
1	Umummilliy qadriyatlarga oid manbalar bilan tanishmisiz?	6	4	2

Olingan ushbu so'rovnomalar tahlilidan shuni ta'kidlash joizki, o'qituvchilarning qadriyatlar, umummilliy qadriyatlar haqidagi bilimlari yetarli emas. Vaholanki, jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlar, ma'naviy islohotlar o'qituvchilardan qadriyatlar, umummilliy qadriyatlar haqida to'liq bilimga ega bo'lishlarini talab etadi. Shuningdek, o'qituvchilarda umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni ilk bor o'qituvchilar hosil qiladilar va shu ruhda ularni tarbiyalab boradilar. Chunki, tinchlik, do'stlik, inson qadri, ona sayyoraning pokligini saqlashda uchun har bir shaxsning mas'ul ekanligini o'qituvchilarning o'zlari qalban his etishlari va bu boradagi ishlarni o'zlari ham vijdonan amalga oshirishlari lozim bo'ladi. Mana shu sabab o'qituvchilarimiz ma'naviy tarbiyaga

oid manbalarn, matbuotda berib borilayotgan eng so'nggi yangiliklarni o'qib borishlari va o'z faoliyatlari jarayonida qo'llashlari kerakdir.

Prezidentimiz I.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganlaridek, eng yomon illat bu befarqlik va loqaydlikdir:"...yon-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo'lib yashaydigan odamdan qo'rqish kerak... Ular hatto o'z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydi..." (Yuksak ma'naviyat 123.)

Darhaqiqat, hozirgi shiddatkor, ma'naviy xurujlar ko'paygan bir davrda mamlakatimiz va dunyo tinchligiga, ona sayyora sofligiga va boshqalarga befarq qarab bo'lmasligini o'qituvchilarimiz yaxshi anglab yetmoqliklari darkor.

To'g'ri biz bu bilan o'qituvchilarni aslo tanqid qilmoqchi emasmiz. Ular o'z faoliyatlariga chin dildan yondoshib, yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish ishlariga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bunga biz amaliyot jarayonida ham guvoh bo'ldik. Ulardan ko'p narsalarni o'rgandik. Ammo ogohlik hozirgi davrda har birimiz uchun yanada kerakdir.

Biz tajriba sinov ishlarini davom ettirib boshlang'ich sinf o'quvchilariga test savollari bilan murojaat qildik: (Ilova-2) Tajriba-sinovda ishtirok etayotgan o'quvchilarimiz 2-sinf o'quvchilari bo'lganligini e'tiborga olib, ularga 5 ta savoldan iborat test varaqalarini tarqatdik.

Bu so'rovnomalar o'quvchilarning umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni anglaganlik darajalarini aniqlashga qaratildi. Bunda to'plangan ballar yig'indisini bilish uchun quyidagi usuldan foydalandik. Har bir to'g'ri javob uchun 20 balldan belgiladik. Bu ballar o'quvchining nechta test javobini topganligiga qarab beriladi. Eng yuqori ball 100 ball hisoblanadi. O'quvchining har bir noto'g'ri javobi uchun eng yuqori 100 balldan 20 ball olib tashlanaveradi.

To'g'ri va aniq javob topgan o'quvchiga qizil rangdagi 3 ta kartochka, noaniq javob uchun 2 ta yashil kartochka, to'liqsiz javob uchun 1 ta sariq kartochka, hech qanday javob berilmagan o'quvchiga kartochka berilmasligini inobatga oldik. Ballarni hisoblaganda, o'quvchilar to'plagan kartochkalar ranglari

har-xil ham bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra ballar hisoblab chiqiladi. Ularning to'plagan kartochokalari asosida milliy qadriyatlarga oid tushunchalarni anglash darajalari uch daraja bo'yicha aniqlandi:

Yuqori daraja: 15 tagacha qizil kartochocka to'plagan o'quvchilar. (15 ball)

O'rta daraja: 7-8 tagacha яшил kartochocka to'plagan o'quvchilar. (7-8 ball)

Quyi daraja: 3 va undan kam kartochocka to'plagan o'quvchilar. (3 ball va undan kam)

Test so'rovlarining natijalari quyidagi jadvalda aks etgan:

1.3.6-jadval

Test so'rovlari natijalari

Guruhlar	Yuqori daraja	O'rta daraja	Quyi daraja
Tajriba - 27			
% hisobida			
Nazorat -31			
% hisobida			

Test tahlillari natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari umummilliy qadriyatlar tushunchasining mohiyatini barchalari to'liq tushunib yetmaganlar. Ammo o'quvchilarimiz biz tadqiq etayotgan muammo yuzasidan ko'plab she'rlarni yod olishgan, ashulalarni bilishadi.

Umuman olganda boshlang'ich sinf o'quvchilarining umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni anglash darajalari ularning yosh va psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq. Ayniqsa, ularning tushunchalarni anglashi yoshlari ulg'ayib borishi, dunyoqarashlarining kengayishi, kengroq axborotlar qabul qilishi, qiziqish mayllarining kuchayishi bilan bog'liq ekan.

Yuqoridagi boblardan va tajriba-sinov ishlari tahlilidan ko'rinadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni anglashi ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayoniga izchil yondashuvni amalga oshirishni taqozo etadi.

Mavjud holat natijlari, olib borilgan kuzatish ishlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirish metodikasi ishlab chiqildi va tajriba-sinov jarayonida qo'llanildi.

Bunda tadqiqot samaradorligini oshirishga yordam beruvchi vosita va manbalardan foydalangan holda tajriba sinfida ko'pgina noan'anaviy dars mashg'ulotlari, turli tarbiyaviy tadbirlar va sayohatlarni tashkil etdik. Dars va tadbir ishlanmalarini o'zimiz tuzib chiqib, ularning qiziqarliligi, mazmundorligi, rang-barangligiga e'tiborni qaratdik. Ayniqsa, 2-sinf o'quvchilari bilan biz uyushtirgan sayohat qiziqarli va mazmunli o'tdi. Sayohatimiz mavzusini "Tabiat va men" deb nomladik. Tajriba-sinov ishlarini 2-sinfda olib borayotganimizni e'tiborga olib, ularning yosh va ruhiy jihatlariga e'tiborni qaratdik. Barcha bajaridigan ishlarimizni og'zaki tarzda amalga oshirdik. Bahor faslining go'zalligi va tabiatning yam-yashil tus olganligini Boshlang'ich sinf o'quvchilarining umummilliy qadriyatlarga, jumladan, ona tabiatga ijobiy munosabatini shakllantirish maqsadida ular bilan maktabning kichikkina bog'iga sayohat darsini tashkil etdik.

Sayohatning maqsadi: umummilliy qadriyat hisoblagan ona tabiat va tevarak-atrofga nisbatan o'quvchilarda ijobiy munosabatni shakllantirish, shuningdek, bahor faslidagi tabiatning go'zalligini o'quvchilarga his ettira olishdan iborat.

Sayohat boshida biz o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, ularga og'zaki savollar bilan murojlat qildik. Jumladan sinfning faol o'quvchilaridan hisoblangan Aslbekka quyidagi savollarni berdik: "Hovlingizda daraxt va gullar parvarish qilinadimi?", "Ularni kim parvarish qiladi?", "Siz ham yordamlashasizmi", "Bog'ingizda qanday daraxtlarni parvarish qilasiz?", "Olma daraxtining guli qanday bo'ladi?" va boshqalar.

Shu kabi savollar bilan Lobarxonga ham murojaat qildik: "Gullarni yoqtirasizmi?", "Gullarning nomini sanab beringchi?", "Sizga gul sovg'a qilishganda xursand bo'lasizmi?", "Gullarni parvarish qilishda oyingizga yordam berasizmi", "Qanday rangdagi gullar sizga yoqadi?".

Sinfning to‘palonchi o‘quvchisi Adhamjondan quyidagi savollarga javob berishini iltimos qildik: “Adhamjon, qanday qushlarni bilasiz?”, “Ularni parvarish qilganmisiz?”, “Qaysi qush beozor qush deyiladi?”, “Qushlar nima bilan oziqlanadi?”, “Nega kushlar qishda bizning o‘lkalarda qishlamaydi?”, “Qushlarning inini buzish yaxshimi?”, “Nega qushlarning ini buzilmaydi?” va boshqalar.

Savol-javoblarni davom ettirib, o‘quvchilarning barchasiga bir qancha umumiy savollar bilan ham yuzlandik. Masalan, “O‘yingizda qanday uy hayvonlari parvarish qilinadi?”, “Siz ham ularni parvarish qilishda yordamlashasizmi?”, “It qanday xayvon”, “Quyvon nima bilan oziqlantiriladi?”, “Kimning uyida qo‘y, sigir, buzoq boqiladi?”, “Tovuq hayvonmi, parranda?”, “Hayvon va parrandalarning sizga foydasi?” va boshqalar.

Mana shu savollar bilan o‘quvchilarning sayohatga qiziqishini oshirishga hamda o‘quvchilarning tabiatga yanada e‘tiborini qaratishga harakat qildik. Savollar orqali bolalar uylarida qanday o‘simlik va hayvonlar parvarish qilinayotganiga qiziqadilar va bevosita tabiatga nisbatan o‘quvchilarimizda mehr-muhabbat o‘yg‘onadi.

Sayohat jarayonida bolalar maktab bog‘boni mehnatini kuzatdilar. Bog‘bon daraxtlar tagini yumshayotgan edi. Shunda bog‘bon bilan qisqagina suhbat tashkil qildik. Bog‘bon daraxt va gullarni qanday parvarish qilish, ularni qay vaqtda sug‘orish, tagini qanday qilib yumshatish mumkinligini o‘quvchilarga tushuntirib berdi. U tabiat qo‘ynida o‘zini xotirjam his qilishini, ularni parvarish qilayotganda esa dam olishini o‘quvchilarga ta’kidladi. Shuningdek, daraxt shoxlarini sindirmaslik, qushlarning inlarini buzmaslik, uy jonivorlariga ozor bermaslikka o‘quvchilarni da’vat etdi. Eng muhimi bog‘bon ona-tabiatning insonga foydali jihatlarini o‘quvchilarga eslatib o‘tdi.

Ushbu kichikkina sayohatimiz qiziqarli va mazmunli o‘tdi. Bolalar sayohatdan dam oldilar va ona tabiatni asrash lozimligini tushunib yetdilar.

Sayohat vaqtida parvarish qilingan va parvarish qilinmagan daraxtlar holatini o‘quvchilarga taqqoslab ko‘rsatdik. Bundan ko‘zlangan maqsadimiz

parvarish qilingan, taglari yumshatilgan, oqlangan daraxtning ko'rkamligi ni o'quvchilarga ko'rsatish bo'lsa, parvarish qilinmagan daraxtning achinarli holatda bo'lishini ko'rsatishdan iborat edi. O'quvchilar ushbu holatni kuzatgandan keyin ularda parvarish qilinmagan daraxtga achinish va unga nisbatan befarq bo'lmaslik hissi paydo bo'ldi. Buni biz o'quvchilar bergan savollar asosida aniqladik.

O'quvchilarning sayohati taassurotlarini og'zaki savol-javob orqali xulosaladik. Bizningcha, o'quvchilarning sayohatdan olgan taassurotlari quyidagicha bo'ldi:

1. Dastlabki savollar natijasida bolalalar o'z uylarida o'sadigan va parvarish qilinadigan parranda, hayvonlarga nisbatan qiziqishlari ortdi
2. Ona tabiatga muhabbat tuyg'usi kuchaydi
3. Tabiatning inson uchun naqadar muhim ekanligi his qildilar
4. Qushlar va hayvonlarga ozor bermaslik lozim ekanligi anglab yetdilar
5. Daraxt va ko'chatlarni parvarish qilish, taglarini yumshatib borish lozimligini bilib oldilar.

Sayohat natijalarini bilish maqsadida o'quvchilarga test savollari bilan murojaat qildik. Test savollarini tuzishda sayohat mavzusidan chetga chiqmaslikka harakat qildik. (Ilova-3)

O'quvchilarga sayohatdan keyin murojlat qilingan test savollari

1. Tabiat nima ?

- a) hayvonlar va qushlar
- b) daraxt va o'simliklar
- v) yer va havo, inson
- g) barcha javoblar to'g'ri

2. Olma, o'rik, shaftoli qanday o'simlik?

- a) gul
- b) meva
- v) nihol
- g) daraxt

3. Daraxt tagi nima uchun oqlanadi ?

- a) chiroyli ko‘rinishi uchun
- b) oppoq bo‘lib turishi uchun
- v) suvni yaxshi ichishi uchun
- g) darxtni xashoratlardan himoya qilish uchun

4. Tovuq qushmi yoki parranda ?

- a) u qush hisoblanadi
- b) parranda
- v) polapon
- g) hayvon

5. O‘simlik va darxtlarning insonga foydali jihatlarini aniqlang ?

- a) havoni tozalaydi
- b) salqin-soya hosil qiladi
- v) inson organizmi uchun foydali yemish hisoblanadi
- g) yuqoridagilarning barchasi inson uchun foydali hisoblanadi.

6. Shaftoli darxtining guli qanday rangda bo‘ladi?

- a) oppoq
- b) moviy
- v) qirmizi
- g) yashil

7. “Qushlar- bizning...” iborasining davomini to‘g‘ri belgilang?

- a) hamrohimiz
- b) do‘stimiz
- v) birodarimiz
- g) vatandoshimiz

8. Nega qushlar sovuq tushishi bilan boshqa joyga uchib ketadilar?

- a) kunlar sovishi munosabati bilan
- b) bolalash uchun
- v) yangi in qurish maqsadida
- g) yemish topish uchun

9. “Zumrad va Qimmat” ertagida gullar va qushlar kimga ta’zim qilar edi?

- a) o‘gay onaga
- b) Qimmatga
- v) Zumradga
- g) cholga

10. Ona tabiat softligi va go‘zalligini asrashga kimlar mas’ul deb hisoblaysiz?

- a) ota-onam
- b) o‘qituvchilar
- v) barchamiz
- g) kattalar

Sayohatda 2-sinf tajriba guruhlarining 27 nafar o‘quvchilari ishtirok etdi.

O‘quvchilarga sayohatdan keyin murojyat qilingan test savollari natijalari

- жадвал

	Гуруҳлар	Юқори	Ўрта	Паст
2-сиф (58 нафар)	Тажриба гуруҳи (34 нафар)	20	11	3
	Назорат гуруҳи (32 нафар)	11	12	9

Test tahlilidan shuni kuzatish mumkinki, tajriba guruhi o‘quvchilarining javoblari nazorat guruhi o‘quvchilarinikidan keskin farq qiladi. Tajriba guruhi o‘quvchilarning javoblarida keskin o‘sish kuzatildi. Demak, sayohat darsi bolalar uchun nihoyatda foydalidir, ayniqsa, biz tanlagan mavzu nuqta-i nazaridan olganda.

Umummilliy qadriyatlardan biri tinchlik ekanligini inobatga olib, biz tinchlikning qadriyat ekanligi va tinchlik tushunchasining mazmunini

o‘quvchilarimizga anglatishga harakat qildik. Shu boisdan tajriba-sinov ishlarimiz davomida shu mavzuda tarbiyaviy soat mashg‘ulotlarini tashkil etdik. Bu mavzuni tajriba gurug‘i sinfi o‘qituvchisi Botirova Ra‘no olib bordi. Mashg‘ulot mavzusi “Tinchlikning qadri” deb nomlandi. Tarbiyaviy soat mashg‘uloti 2016 yil 22-aprelda tashkil etildi. Mashg‘ulotga tayyorgarlik ishlari bir hafta oldin boshlandi. Dastlab biz mashg‘ulotning rejasi va texnologik xaritasini tuzib chiqdik. Shuningdek, nimalarga e‘tibor qaratish lozimligini aniqlab oldik. Ayniqsa, o‘qituvchidan mavzuning quyidagi jihatlariga e‘tibor qaratishini iltimos qildik:

1. O‘qituvchi mavzuni boshlashdan oldin o‘quvchilarning lo‘g‘at daftariga tinchlik so‘zining ma‘nosini yozdirishi va shu bilan mavzuni boshlashi.

2. Tarbiyaviy soatda **“Tinchlikning qadri”**ni o‘quvchilarga misollar orqali va video film orqali ko‘rsatib berishi.

3. Tinchlikni asrashga yer kurrasidagi barcha xalqlar mas‘ulligini tushuntira bilishi.

4. Yurtimizdagi tinchlik, farovonlikning hukm surayotganini o‘quvchilarga anglatishi va boshqalar.

Yuqoridagi boblarda ta‘kidlaganimizdek, mashg‘ulotning samaradorligi o‘qituvchining mahoratiga, ijodkorlik qobiliyatiga bog‘liqdir. Bu narsa mashg‘ulotda o‘tilayotgan mavzularning mohiyatini ochib berishda va uning maqsadiga erishishda qo‘l keldi. Natijada o‘quvchilarda umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni anglash darajalari yuksalib borishi ham kuzatiladi. O‘quvchilarning mavzuga nisbatan qiziqishlarini oshirish maqsadida mashg‘ulotlarda turli didaktik vositalar, axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish uning ta‘sirchanligini yanada oshiradi.

Bizga ma‘lumki, hozirgi kunda yurtimizning barcha maktablari axborot texnologiyalarining turli vositalari bilan ta‘minlangan. Ayniqsa, har bir maktab o‘zining kompyuter sinfi, elektron doskalariga ega. O‘quvchilarning umummilliy qadriyatlar haqidagi tushunchalarini boyitishda ularning imkoniyati beqiyos. Bunda so‘zsiz multimediyali tasvir asosida olib borilgan mashg‘ulatlarning samaradorligi yanada yuqori bo‘ladi.

Tarbiyaviy soatga o'quvchilar juda faol ishtirok etishdi. Ular tinchlik szo'ining ma'nosini va mazmunini, uning umummilliy ahamiyatga ega qadriyat ekanligini anglab yetdilar.

Shu bilan birga tajriba ishlari darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda davom ettirildi. Biz yuqoridagi kuzatishlarimiz natijasida aytganimizdek, maktablarda odatda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarga kam e'tibor beriladi. Vaholanki, o'quvchilarning dunyoqarashi, ma'naviyatini shakllantirish faqat dars jarayonida emas, balki darsdan tashqari paytlarda ham amalga oshirish lozim.

Yuqoridagi kamchiliklardan xulosa chiqargan holda, biz tajriba ishlarini sinfdan tashqari jarayonga qaratdik. Bu ishlar belgilangan maqsad va vazifalar, metodik tavsiyalar asosida tashkil etildi. Bular ertaliklar, bellashuvlar, suhbatlar, sayohatlar davomida amalga oshirildi. Masalan, buni 2- sinf o'quvchilari bilan tashkil qilgan shoir Muxammad Yusufning tavallud kuniga bag'ishlab "Ulug'imsan Vatanim" mavzusidagi bayram tadbiri misolida ko'rish mumkin. Zotan vatanparvarlik ham umummilliy qadriyat hisoblanadi. Shoirimiz Muhammad Yusufning asarlari esa vatanparvarlik g'oyalari boy hisoblanadi. Shu bois tadbir nomini shoirning o'z so'zi bilan "Ulug'imsan Vatanim" deb nomladik.

Ushbu bayram tadbiriga tayyorgarlik ishlari bir oydin boshlab yuborildi. Tadbir yuzasidan o'quvchilarga shoirning Vatan, o'zbek xalqi haqidagi she'rlari yodlatildi. Tadbirda o'quvchilarning barchalarini ishtirok etishlariga e'tiborni qaratdik. Tadbirda o'quvchilar raqsga tushishdi, qo'shiq kuylashdi va Muhammad Yusuf she'rlari yuzasidan bahru-bayd uyushtirishdi. Bayram tadbiriga maktab ma'muriyati, ota-onalar hamda Qarshi davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida professor-o'qituvchilari ishtirok etishdi. Bayram tadbiri mehmonlar tomonidan yaxshi baholandi.

Biz o'tkazgan tarbiyaviy soat mashg'ulotlari, sinfdan va maktabdan tashqari bayram tadbirlari boshlang'ich sinf o'quvchilariga umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni anglatishga, ularni tushuntirishga, mazmunini anglatishga qaratildi. O'quvchilarni tadbirlar tufayli yodlagan she'rlari, ashula va qo'shiqlari, maqol va

topishmoqlari hamda uyushtirilgan sayohatlar o‘quvchilarda qadriyatlarga nisbatan hurmat va e‘tiborni shakllantirdi. Barcha tadbirlar jarayonida o‘quvchilar o‘zlarini erkin tutdilar va qiziqish bilan ishtirok etdilar.

Shunday qilib, tadqiqot yakunida olingan natijalar tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichidagi o‘quvchilarning og‘zaki va test variantlari javoblari bilan taqqoslandi. Олинган натижалар шуни кўсатадики, тажриба гуруҳи ўқувчиларининг жавоблари назорат гуруҳиникидан ўсганлиги кузатилди. (3-ilovalar).

2.1.2-jadval

Test so‘rovlari natijalari

Guruhlar	Yuqori daraja	O‘rta daraja	Quyi daraja
Tajriba – 34			
% hisobida			
Nazorat -32			
% hisobida			

Izoh: (27/30) kasr sur‘ati (27) tajribagacha, maxraji (30) tajribadan keyingi raqam.

Shuni ta’kidlash kerakki, biz olib borgan tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni anglashlariga yo‘naltirilgan pedagogik tizim samaradorligini oshirishga, takomillashtirishga ma’lum darajada xizmat qiladi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida o‘zimiz ham tajriba guruhi o‘quvchilari ham juda ko‘p narsalarni o‘rgandilar, biz ham ular bilan birgalikda izlandik, ko‘plab manbalarni to‘pladik.

UMUMIY XULOSALAR

Olib borgan tadqiqotlarimiz quyidagilarni xulosalash imkoniyatini yaratdi:

1. Globallashuv jarayonlarida yosh avlod ma'naviyatini yanada yuksaltirish, ularni turli ma'naviy xurujlardan himoyalash nafaqat jamiyatimiz, balki, pedagogika fani oldiga turgan dolzarb muammolardan biridir. Ushbu muammoni bartaraf etish yo'llaridan biri esa, bizningcha, yosh avlodda umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyani shakllantirishdir.

2. Falsafiy va pedagogik adabiyotlar tahlili va mavjud holatni o'rganish natijalari shundan dalolat beradiki, umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdirish ularning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yondoshish lozimligi kerakligini namoyon etdi.

3. O'quv-tarbiya mashg'ulotlaridan biri - tarbiyaviy soatlar jarayonida o'quvchilarga umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni singdirish imkoniyati katta ekanligi va uni zamonaviy usullardan foydalanib tashkil etish lozimligi tadqiqotda o'z isbotini topdi.

4. O'qituvchilar bilan tashkil etilgan og'zaki suhbat natijalaridan ayon bo'ldiki, ularga biz tanlagan mavzu yuzasidan pedagogik bilimlar, ilmiy-metodik tavsiyalar hamda nazariy ma'lumotlar berish zarurligi kuzatildi.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga umummilliy qadriyatlarga xos tushunchalarni singdirishda sinfdan tashqari tadbirlarning asosiy shakli sayohat ekanligi tajriba-sinov ishlari jarayonida o'z tasdiqini topdi. Tashkil etilgan sayohat orqali o'quvchilarda ona tabiatga nisbatan mehr, e'tiborni shakllantirish mumkinligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Tuzuvchilar: J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. – T.: “Ma’rifat-Madadkor”, 2000. – 7-19-b.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. – T.: “Ma’rifat-Madadkor”, 2000. – 20-55-b.
3. O‘zbekiston Prezidentining 2004 yil 21 maydagi “2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni. Ma’rifat, 2004 yil 22 may.
5. Karimov I. A. O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li. T.: O‘zbekiston, 1992. -78b
6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. Tom 6. - T.:O‘zbekiston, 1998.- 116 b.
7. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008.-176 b.
8. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T., 2010.
9. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.T.:“O'zbekiston”, 2011, 430.
10. Abdullayeva Q., Aliqulova N., Rahmonbekova S. Odobnoma. (2-sinf uchun darslik) . T.: “O‘zbekiston”, 2010, 77b.
11. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik . Asqar Mahkam tarjimasi.-T.: Sharq NMAK, 2001. – 400 b.
12. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992.–160 b.
13. Azarov Y.P. Tarbiyaviy ish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1991. – 67 b.
14. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. Al-Jome’ as-sahih (Ishonarli to‘plam). 4 kitob. 1-kitob. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati,1991.– 550 b.
15. Amir Temur o‘g‘itlari (to‘plam) Tuzuvchilar:B.Ahmedov, A.Aminov.-T.: Navro‘z, 1992. – 64 b.

16. Boburnoma. Mahmud Sa'diy, Najmiddin Komilov. T.: O'qituvchi, 2008. – 286 b.
17. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanl. asarlar. – T.: Fan, 1 t. 1968. – 488 b.
18. Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar). – T.: Xalq merosi, 1-k. 1995. – 104 b.
19. Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. M. Qarshiboyev. – T.: Ma'naviyat, 1999. – 240 b.
20. Fitrat, Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. D. A. Alimova. tarj.: Sh. Vohidov. – T.: Ma'naviyat, 1998. – 112 b.
21. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. Tuzuvchi M. Mahmudov. – T.: Xalq merosi, 1993. – 224 b.
22. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2005. – 248 b.
23. Hasanboyeva O., Inoyatova M., Ne'matova A., Odobnoma. 2-sinf uchun darslik. T.: "O'qituvchi" 2012, 76 b.
24. Hasanboyev J., Hasanboyeva O., Turopova M. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. – 112 b.
25. Holiqova M., Ergasheva Sh. Odobnoma. 3- sinf uchun darslik. T.: "Yangi yo'l roligraf serves", 2012.- 93 b.
26. Holiqova M., Ergasheva Sh., Odobnoma. 4-sinf uchun darslik. "Yangi yo'l roligraf serves". 2011,- 92 b.
27. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari (Uch jildlik saylanma). – T.: Xalq merosi, 1-jild. 1993. – 3-182-b.
28. Kaykovus, Qobusnoma. Nashrga tayyorlovchi: S. Dolimov. – T.: O'qituvchi, 1986. – 168 b.
29. Koshifiy, Husayn Voiz. Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. Fors-tojik tilidan N. Komilov tarjimasini. – T.: Xalq merosi, 1994. – 112 b.
30. Mavlonova R., To'rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2002. – 384 b.

31. Mavlonova R., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv fo‘llanma. T.:2008, -110 b.
32. Mahmudov S. O‘zbek udumlari.-T.: Fan, 1993.- 218 b.
33. Mahmudov T. Avesto haqida.- T.: Guliston, 2000.- 63 bet.
34. Ming bir hadis.- T.: Movarounnahr, 1998.- 144 b.
35. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 192 b.
36. Navoiy A. Hayrat ul-abror.- T.: G‘.G‘ulom, 2006.- 389 b.
37. Nazarov Q. Aksiologiya. Qadriyatlar falsafasi. - T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2004.- 196 b.
38. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. - Qarshi: Nasaf, 2000. – 80 b.
39. Qoraboyev U. O‘zbekiston bayramlari. - T.: O‘qituvchi, 1991.- 186 b.
40. Qur’oni karim. Tuzuvchi.Shayx Abdulaziz Mansur.-T.: “Toshkent islom universiteti. 2007. 617 b.
41. Temur tuzuklari. Forschadan H.Karomatov tarjimasini. – T.: Sharq NMAK, - 144 b.
42. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi.- T.: O‘zbekiston, 1998.- 335 b.
43. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. 3-sinf O‘qish kitobi. – T.: O‘qituvchi,. 2014. – 222 b.
44. Vatan tuyg‘usi. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo‘rayev. – T.: O‘zbekiston, 1997. – 439 b.
- 45.Yo‘ldosheva R. O‘zbek xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati.-T.: O‘qituvchi, 1994.- 119 b.
46. Yusupov E. Falsafa.- T.: Sharq, 1999.- 494 b.
47. Yusupov E., Ismoilov F. Inson barkamolligi.- T.: O‘zbekiston, 1990.- 240 b.
48. Yusupov E. Qadriyatlar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli.- T.: 1995.- 123 b.
49. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. T.: O‘qituvchi, 1995.- 478 b.
50. O‘zbek xalq maqollari. - T.: Sharq, 2003.- 510 b.

51. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. 1-sinf O'qish kitobi. T.: Sharq, 2014. - 127 b.

52. G'afforova T., Sh. Nurullayeva, Mirzahakimova Z. O'qish darsligi. 2-sinf. -T.: Sharq 2014. 257 b.

53. Erkayev A. Ma'naviyat - millat nishoni.- T.: Ma'naviyat, 1997.- 188 b.

Internet saytlari

www.ziyonet.uz

www.pedagog.uz

www.kutubxona.uz

ILOVALAR

**Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan o'tqazilgan
anketa so'rovlari savollari**

1. Qadriyat so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- a) Milliylik, insonpavarlik
- б) Qadr-qimmat
- в) Insonning qadri

2. Aksiologiya fanday fan?

- a) Pedagogik fanlar tizimiga oid
- б) Falsafa faniga tegishli fan
- в) Qadriyatlar haqidagi fan

3. Umummilliy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?

- a) millatlarning urf-odatlarini, marosimlarini, bayramlarini, an'analari, dini, tili va madaniyati;
- b) Madaniyat va halq og'zaki ijodini;
- v) o'zbek halq og'zaki ijodini;
- g) Barcha millatlar uchun tegishli bo'lgan qadriyatlar (tinchlik, inson erki, yer sayyorasining sofliqi va boshqalar)ni;

4. Umummilliy qadriyatlarga oid manbalar bilan tanishganmisiz?

- a) Matbuotda (gazeta va jurnal) chop etilayotgan materiallar bilan tanishib boraman;
- b) Televizor orqali namoyish etilayotgan ma'lumotlarning o'zi etarli deb o'ylayman
- v) Maktabda olib borilayotgan tag'ibot ishlarining o'zi yetarli deb hisoblayman

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga murojaat qilingan test savollari

1. Siz kim yoki nimani ko'proq qadrlaysiz?

- a) ota-onamni
- b) uyimni
- v) tabiatni
- g) barchasini

2. Tinchlik, deganda nimani tushunasiz?

- a) xotirjamlikni
- b) oila davrasida suhbat qilishni
- v) maktabda o'qishni va o'ynashni
- g) a,b,v javoblar to'g'ri

3. Tabiat nima ?

- a) hayvonlar va qushlar
- b) daraxt va o'simliklar
- v) yer va havo, inson
- g) barcha javoblar to'g'ri

4. Do'stingizni nima uchun yoqtirasiz ?

- a) qizg'anchiq va maqtanchoq emasligi uchun
- b) mehribonligi uchun
- v) chiroyli kiyinganligi uchun
- g) a, b javoblar

5. Tabiat qo'yniga qaysi faslda sayr qilishni istaysiz?

- a) yoz faslida
- b) qishda
- v) bahorda

g) kuzda